

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI  
ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI**



“Himoya qilishga ruxsat beraman”  
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti  
dekani,

\_\_\_\_\_ dots. Sh. Haydarov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2013 y.

5141100-O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr  
darajasini olish uchun

**BADIIY MATNDA GAP BO‘LAKLARI SHAKLIDAGI  
PARSELLYATIV KONSTRUKSIYALARNI O‘RGANISH**  
mavzusida bajarilgan

***BITIRUV MALAKAVIY ISHI***

Bajaruvchi: M. Madalova  
Ilmiy rahbar: dots. Sh. Haydarov  
Taqrizchi: p.f.n. Q. Yadgorov

**BMI O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH USLUBIYATI**  
kafedra yig‘ilishining qarori bilan (Qaror №10. 15.05.2013) himoyaga tavsiya  
etilgan

Kafedra mudiri: p.f.n. Q. Yadgorov

**MUNDARIJA:**

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I BOB. PARSELLYATSIYA HODISASI VA ULARNING</b>	
<b>O‘RGANILISHI</b> .....	8
1.1. Tilshunoslikda parsellyatsiya muammosi.....	10
1.2. Parsellyatsiyaning yondosh hodisalardan farqi.....	14
1.2.1. Parsellyatsiya va ilova konstruksiyalar.....	14
1.2.2. Parsellyatsiya va segmentatsiya.....	20
1.2.3. Parsellyatsiya va paranteza.....	23
1.2.3. Parsellyatsiya va ajratilgan bo‘lak.....	26
<b>II BOB. GAP BO‘LAKLARI SHAKLIDAGI</b>	
<b>PARSELLYATLAR</b> .....	29
2.1. Bosh bo‘laklar shaklidagi parsellyatlar.....	29
2.1.1. Ega shaklidagi parsellyat.....	29
2.1.2. Kesim shaklidagi parsellyat.....	34
2.2. Ikkinchi darajali bo‘laklar shaklidagi parsellyatlar.....	37
2.2.1. To‘ldiruvchi shaklidagi parsellyat.....	37
2.2.2. Aniqlovchi shaklidagi parsellyat.....	40
2.2.3. Hol shaklidagi parsellyat.....	46
<b>III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TADBIQI</b> .....	52
3.1. Ta’lim bosqichlaridagi darsliklarda parsellyatlarning qo‘llanilishi.....	52
3.2. Ochiq dars ishlanmasi.....	57
<b>XULOSA</b> .....	65
Foydalanilgan adabiyotlar.....	67

**Mavzu: BADIY MATNDA GAP BO‘LAKLARI SHAKLIDAGI  
PARSELLYATIV KONSTRUKSIYALARNI O‘RGANISH**

**Reja:**

**Kirish** BMIning umumiy tavsifi.

**I BOB. Parsellyatsiya hodisasi va ularning o‘rganilishi.**

1.1. Tilshunoslikda parsellyatsiya muammosi.

1.2. Parsellyatsiyaning yondosh hodisalardan farqi.

**II BOB. Gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatlar**

2.1. Bosh bo‘laklar shaklidagi parsellyatlar.

2.2. Ikkinchi darajali bo‘laklar shaklidagi parsellyatlar.

**III BOB. Ishning amaliyotga tadbiqu**

3.1. Ta’lim bosqichlaridagi darsliklarda parsellyatlarning qo‘llanilishi.

3.2. Ochiq dars ishlanmasi.

**Xulosa.**

## KIRISH

Biz bugun ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotning barcha jabhalarida jadal rivojlanish holati yuz berayotgan va demokratiyaga asoslangan ochiq fuqorolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan mustaqil mamlakatda yashab, o'z ezgu maqsadlarimiz sari intilmoqdamiz. Bu yo'lda ziyoli shaxslar oldidagi asosiy vazifalardan biri bu inson ma'naviyatini shakllantirish masalasidir. Zero, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi"<sup>1</sup>. Mazkur bitiruv malakaviy ishida tadqiqqa tortilayotga parsellyatsiya, gap bo'laklari shaklidagi parsellyatlar badiiy matn sathida, ya'ni badiiy adabiyot manbalari orasida uchraydigan hodisa hisoblanadi. Badiiy adabiyot esa ma'naviyatni shakllantiruvchi asosiy mezonlar sirasiga kiradi. Shunday ekan yozuvchi o'z badiiy niyatini parsellyatsiya hodisasidan foydalangan holda ifoda qilar ekan, u bu jarayonda o'quvchiga yetkazilishi kerak bo'lgan muhim axborotni uning ongiga tez ta'sir ko'rsata olishini ta'minlagan bo'ladi. Kitobxon badiiy adabiyotni qanchalik ko'p mutolaa qilsa, uning fikrlash doirasi shunchalik kengayib boraveradi. Dunyoqarashi keng inson ongida ma'naviy bo'shliqqa joy qolmaydi. Badiiy adabiyot orqali yetkazib berilayotgan ma'lumotlarning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglab yetish uchun o'quvchi parsellyatsiya hodisasidan xabardor bo'lsa foydadan xoli bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonining eng muhim bo'g'ini, jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarni barqaror rivojlantirish respublikada ham jamiyat integratsiyalashuvining zarur va majburiy sharti sifatida ta'lim sohasini isloh qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Belgilangan maqsadga erishish uchun "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilingan bo'lib, uni izchillik bilan muvaffaqiyatli amalga oshirish, qo'yilgan

---

<sup>1</sup>Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: "Маънавият" 2008. 29-бет

vazifalarga erishish ana shu bo‘g‘inlarning holati va rivojlanish darajasiga, ularning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqdir.

Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, ta’lim tizimi konsepsiyasi, DTS hamda o‘quv metodik majmualarni tubdan yaxshilashni, o‘qitish metodikasini ham yangilashni taqozo qiladi”<sup>2</sup>. Bu borada yurtimizda keng ko‘lamli ishlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, erishilayotgan natijalar kundandun yuqori ko‘rsatkichlarni bermoqda. Ilm-fan, xususan, o‘zbek tilshunosligining bir bo‘limi hisoblangan matn tilshunosligi sohasida ham ulkan izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, mazkur bitiruv malakaviy ishi ham matn tilshunosligi sohasida olib borilgan tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunda matn muammosi boshqa tilshunosliklarda bo‘lgani kabi o‘zbek tilshunosligida ham eng dolzarb masalalardan biri sanalmoqda. Badiiy matnning shakllanish tarzi, badiiy matn va uning qismlarini bog‘lovchi vositalar o‘rtasidagi munosabat, ayniqsa, parsellyativ konstruksiyalarning mohiyati va tabiati masalasi bo‘yicha tilshunoslikda hozirga qadar aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Matn tilshunosligi muammolariga to‘g‘ri tahlil va talqin nuqtai nazaridan yondashishda parsellyatsiya hodisasining ahamiyati nihoyatda o‘rinlidir. Shu bilan birgalikda, mazkur hodisaning badiiy matn doirasidagi semantik-sintaktik holatini o‘rganish tadqiqotchilar e’tiborini o‘ziga jalb qilayotganligi mavzuning ahamiyatini belgilaydi.

Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning, xususan, gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatlarning yuzaga kelish va qo‘llanilish jarayonini aniqlashtirish o‘zbek poetik sintaksisining hozirgi ahvoli va taraqqiyoti masalalarini qisman belgilash imkonini beradi. Shuningdek, parsellyativ konstruksiyalarning tabiatini va mohiyatini o‘rganish badiiy til bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab muammolarning yechimini topish uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Shu va boshqa holatlar ish mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

---

<sup>2</sup> Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси, Т.: Ўзбекистон, 1992-йил,13-бет.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Parsellyativ konstruksiyalar o‘zbek tilshunosligida dastlab I. Toshaliyev tomonidan o‘rganilgan. Uning “Hozirgi o‘zbek tili. Sintaksis. Sintaktik va sintagmatik qayta bo‘linish. Parsellyatsiya” nomli qo‘llanmasida parsellyatsiya hodisasi haqida bir qancha ma’lumotlar keltirilgan<sup>3</sup>. Tadqiqotchi ishda parsellyativ konstruksiyalar va ilova konstruksiyalarni aynan bir xil hodisa, degan qarashni ilgari surgan. Shundan so‘ng parsellyativ konstruksiyalar boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham ilova konstruksiyalar nomi ostida tekshirilgan<sup>4</sup>. Yana bir tadqiqotchi A. G‘afforov tomonidan ham har ikkala hodisa chalkash tarzda talqin qilingan<sup>5</sup>. Bu tadqiqotchilar parsellyativ konstruksiyalar bilan ilova konstruksiyalarni imkon qadar farqlashga harakat qilgan bo‘lsalar-da, ular o‘rtasidagi farqni ko‘rsatolmaganlar. Keyinchalik bu hodisalar Sh. Haydarov tomonidan tahlilga tortilgan va ular o‘rtasidagi farqlar aniq faktik materiallar asosida ko‘rsatib berilgan. Tadqiqotchi “Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning qo‘llanilishi” mavzusida dissertatsion tadqiqot olib borib, unda o‘zbek tilshunosligida parsellyativ konstruksiyalarning bevosita badiiy matn doirasidagi kompleks tadqiqini to‘la-to‘kis amalga oshirishga muvaffaq bo‘lgan.

**BMIning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Bitiruv malakaviy ishining mavzusi Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek tilshunosligi kafedrasida ilmiy muammosi tarkibiga kiradi. Ushbu mavzu mazkur kafedra tomonidan bitiruv malakaviy ishi uchun tavsiya etilgan.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Ushbu mavzu orqali gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatlarning badiiy matnda qo‘llanilish xususiyatlarini tadqiq etish maqsad qilindi. Badiiy matnning shakllanishida gap bo‘laklari shaklidagi parsellyativ konstruksiyalarning o‘rni, gap bo‘laklari shaklidagi parsellyativ

<sup>3</sup> Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек тили. Синтаксис. Синтактик ва синтагматик қайта бўлиниш. Парселляция. Тошкент: Зарқалам, 2004.-Б.88.

<sup>4</sup> Бу ҳақда қаранг: Исҳоқов Ф. Ҳозирги замон ўзбек тилида иловали конструкциялар. // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари 2-китоб — Тошкент: ЎзФА, 1961. 285-289-бетлар. Абдуллаев А. Илова кўчирма гапли конструкциялар // Ўзбек тили ва адабиёти —1982. —№2 50-52-бетлар. Маскапов Б. Ўзбек тилидаги илова конструкциялар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти —1970.-Н-6 50-54-бетлар. Туропова М. Илова конструкцияларнинг бошқа синтактик конструкциялардан фарқи.// Ўзбек тили ва адабиёти —1980. — Н-1. 53-56-бетлар.

<sup>5</sup> Гаффаров А. Ҳозирги Ўзбек тилида парселлятив ва иловали қурилмаларнинг синтактик дериватсияси. Тилшунослик фанлари ном ... дисс. Автореф. —Самарқанд — 1997.

konstruksiyalarning Grammatik va semantik xususiyatlarini aniqlash tadqiqotning asosiy vazifalari qatoriga kiradi. Istalgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutildi:

- parsellyativ konstruksiyalarni o‘zbek va boshqa tilshunosliklarda qay darajada o‘rganilganligini aniqlash;
- o‘zbek tili badiiy matnlaridagi gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatlarning asosiy ko‘rinishlarini aniqlash va tahlil qilish;
- ta’lim bosqichlaridagi darsliklarda gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatlarni qo‘llanilishini o‘rganish.

**Tadqiqotning obyekt va materiallari.** Ishning tadqiq obyektini o‘zbek badiiy adabiyotida qo‘llanilgan gap bo‘laklari shaklidagi parsellyativ konstruksiya tashkil etadi. Ishda tahlilga tortilgan misollar zamonaviy o‘zbek yozuvchilarining badiiy asarlari materiallaridan to‘plandi. Nazariy manba sifatida hozirgi davr tilshunosligidagi bitiruv malakaviy ish mavzusiga aloqador tadqiqotlardan keng foydalanildi.

**Ishning metodikasi.** Bitiruv malakaviy ishning metodologiyasini dialektikaning bilish nazariyasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ma’naviy meros va milliy tilni asrash, o‘zbek ilm-fani taraqqiyot yo‘llarini belgilash haqidagi nazariy qarashlari tashkil etadi. Mavzuni yoritishda bugungi kun o‘zbek tilshunosligi qo‘lga kiritgan yutuqlardan va ta’lim bosqichlaridagi darsliklardan unumli foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- parsellyativ konstruksiyalarning mohiyati hamda ilova va boshqa shunga yaqin konstruksiyalardan farqli tomonlari badiiy matndan olingan daliliy misollar asosida izohlandi;
- gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatlar haqidagi ma’lumotlar misollar bilan asoslandi;
- gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatlarning ta’lim bosqichlaridagi darsliklarda qo‘llanilishi aniqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ushbu tadqiqot natijalaridan o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari mazkur mavzuga yaqin bo‘lgan kurs ishlarini yozishda, “Badiiy matnning lisoniy tahlili” fanidan seminar darslariga tayyorlanishda va shu fan yuzasidan berilgan mustaqil ishlarni bajarishda manba sifatida foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

**Ishning jamoatchilik e‘tiboridan o‘tishi.** Bitiruv malakaviy ish mavzusi yuzasidan Jizzax politexnika inistituti qoshidagi akademik litseyining 304-guruhiga navbatdan tashqari bir para ochiq dars o‘tilgan.

## I BOB. PARSELLYATSIYA HODISASI VA ULARNING O'RGANILISHI

Parsellyatsiya ekspressiv sintaksisda yozuvchi badiiy niyatini to'la-to'kis ifodalashda va u o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan xabarni ta'sirli chiqishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan usul hisoblanadi. Badiiy matn qismlarini birlashtirishda parsellyatli tuzilmalarning yordami nihoyatda kattadir. Og'zaki nutqda, matnda ba'zan muloqot talabi bilan bir jumlada uzilish sodir bo'ladi. So'zlovchi tinglovchiga biror voqea-hodisa haqida xabar berayotganda mana shu xabar ichidagi eng muhim fikrni boshqalaridan ajratib, alohida ta'kidlab aytishga harakat qiladi. Ma'lumki, ta'kid og'zaki nutqda ohang, pauza, mantiqiy urg'u kabi vositalar yordamida amalga oshirilsa, matnda parsellyativ tuzilmalar-matn komponentlarini ekspressiv stilistik maqsadga ko'ra qayta tartiblash orqali namoyon bo'ladi. Masalan: 1. *Hurriyat va adolat uchun kurashish kerak.* Yoki: 2. *Kurashish kerak. Hurriyat uchun. Adolat uchun.* Birinchi gap odatdagi tartibda tuzilgan sodda gap hisoblanadi. Ikkinchi gap esa parsellyatli tuzilma hisoblanadi. Uch komponentli bu qurilmada birinchi qism asos, qolganlari esa parsellyat bo'lak hisoblanadi <sup>6</sup>.

O'zbek tilshunosligida bevosita parsellyativ konstruksiyalarni o'rganishga bag'ishlangan dastlabki ish sifatida I.Toshaliyevning "Hozirgi o'zbek tili. Sintaksis. Sintaktik va sintagmatik qayta bo'linish. Parsellyatsiya" deb nomlangan qo'llanmasini tilga olish mumkin, unda parsellyatsiya hodisasi haqida ancha-muncha ma'lumot berilgan. Bir gap doirasida aytilishi mumkin bo'lgan fikrning "bo'laklanib" ifodalanishi masalasi tilshunoslar diqqatini har doim o'ziga jalb etib kelgan, ammo o'zbek tilshunosligida (shuningdek, boshqa bir qator tilshunosliklarda ham) bu hodisa boshqa hodisalar bilan xususan, ilova konstruksiyalar bilan aralash holda yoki aynan bir xil hodisa sifatida talqin qilingan<sup>7</sup>. XX asrning o'rtalaridan boshlab parsellyativ konstruksiyalar "ilova

<sup>6</sup> Йўлдошев М. Ядгаров Қ. "Бадий матннинг лисоний тахлили" фанидан амалий машғулотларни ташкил этиш. — Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2007. — Б. 71-72.

<sup>7</sup> Хайдаров Ш. Бадий матнда парселлятив конструксияларнинг қўлланиши. Диссертация. Т.:— 2010. Б.6.

konstruksiylar” nomi ostida o‘rganilgan. Bu holatni F.Is‘hoqov<sup>8</sup>, A.Abdullayev<sup>9</sup>, B.Maskapov<sup>10</sup>, M.Turopova<sup>11</sup> kabi olimlarning ishlarida kuzatishimiz mumkin. Keyinroq ayrim tadqiqotchilar parsellyativ va ilovali qurilmalarni farqlashga harakat qilgan bo‘lsalar-da, asosan sintaktik derivatsiya doirasi bilangina cheklanganlar, ko‘p hollarda bu ikki hodisaning chegaralarini aniq ko‘rsatolmaganlar<sup>12</sup>.

Ilovali konstruksiylar haqida F.Is‘hoqov shunday fikrlarni bildirib o‘tgan: “Ilovali konstruksiylar odatdagidan tashqari tartibga ega bo‘lgan aloqalar bo‘lib, bu uning tashqi belgisi sanaladi. Funksiya e‘tibori bilan esa ular so‘zlovchining nutqidagi sodda uslubni, uning og‘zaki so‘zlashuvga xos xususiyatlarini aks ettiradi<sup>13</sup>.

B. Maskapov ham ushbu ilovali konstruksiylarni dissertatsion ish sifatida tadqiq qildi. U F. Is‘hoqov ilgari surgan g‘oyalarni rivojlantirdi va faktik materiallar bilan boyitib, ilovali konstruksiylar haqida shunday ta‘rifni keltirdi: “Ifoda jarayonida fikr nisbiy tugallangan darajada aytilgan bo‘ladi. Shundan keyin unga oldindan o‘ylanmagan nimanidir qo‘shib bayon etish so‘zlovchi nazarida zarur tuyuladi. Ana shu qo‘shimcha izoh tugallangan pauzadan so‘ng bayon etiladi. Oldindan o‘ylanmagan, biroq qo‘shimcha ravishda bayon etilgan shu keyingi ifoda ilova konstruksiya hisoblanadi. Ilova konstruksiya oldingi gapning asosiy ifoda mazmunini kengaytiradi, to‘ldiradi, reallashtiradi va unga aniqlik kiritadi”<sup>14</sup>. Og‘zaki nutqda ya‘ni so‘zlashuv jarayonida asosiy gapda chala qolgan va aytilishi juda zarur hisoblangan fikr ilova konstruksiylar orqali anglatilishi mumkin. Parsellyatsiyaning ilovadan farqi shundaki, u gapga muayyan qismni qo‘shimcha qilmaydi, balki gapdagi biror bo‘lak yoki qismni o‘quvchiga ma‘lum estetik ta‘sir ko‘rsatish maqsadi bilan tashqariga — gapning oxiriga chiqarishdir.

<sup>8</sup> Исхоқов Ф. Кўрсатилган асар Б.285-289.

<sup>9</sup> Абдуллаев А. Кўрсатилган мақола. 50-52-бетлар.

<sup>10</sup> Маскапов Б. Кўрсатилган мақола.50-54-бетлар.

<sup>11</sup> Туропова М. Кўрсатилган мақола. 53-56- бетлар.

<sup>12</sup> Гаффоров А. Кўрсатилган афтореферат.

<sup>13</sup> Исхоқов Ф. Кўрсатилган мақола —285-бет.

<sup>14</sup> Маскапов Б. Кўрсатилган мақола.—51-бет.

Oxirgi o'n yilda parsellyatsiya hodisasining struktur, semantik–sintaktik, stilistik xususiyatlarini o'rganish, bu hodisaning badiiy matn tarkibidagi, gazeta tilidagi ekspressiv ishtirokini, poetik qiymatini tayin etish borasidagi tadqiqotlar rus tilshunoslari tomonidan juda ham faol tarzda olib borilmoqda. Bu o'rinda A. E. Sumarev, Y.B. Bogayavlenskaya, I.V. Aleksenko, R. O. Zelepukin, M. O. Stupkina kabi tadqiqotchilarning nomzodlik dissertatsiyalarini tilga olishning o'zi kifoya.

Badiiy asar tadqiqotchilari, xususan, badiiy matnga lingvopoetik yondashuv muammolarini tadqiq etgan o'zbek tilshunoslari ham ushbu hodisaning o'rganilishi lingvopoetik jihatdan jiddiy ahamiyatga molik ekanligini alohida ta'kidlaydilar.

O'zbek tilshunosligida parsellyativ konstruksiyalarning bevosita badiiy matn doirasidagi kompleks tadqiqini Sh. Haydarovning nomzodlik dissertatsiyasida yaqqol ko'rish mumkin<sup>15</sup>.

“Partsellyatsiya gapning shunday bo'linishiki, unda ifodaning mazmuni bitta emas, balki ikki va undan ortiq intanatsion ma'noviy nutqiy birliklarda anglashiladi. Bunday birliklar biri ikkinchisidan so'ng ketma-ket keladi<sup>16</sup>”. Shunga ko'ra partsellyatsiya asos va partsellyat sifatida ikki qismda bo'lib tekshirish maqsadga muvofiqdir.

### **1.1. Tilshunoslikda parsellyatsiya muammosi**

Ma'lumki, ekspressiv sintaksis badiiy nutq tuzilishining eng xarakterli jihatlaridan biridir. Ekspressiv sintaksisning alohida diqqatga sazovor usullaridan bo'lmish nutq oqimida gapni bo'laklash, gap sintaktik tarkibidagi muayyan qismlarni gapdan tashqariga chiqarish yoki muayyan qismni gapga tirkash natijasida yuzaga keladigan parsellyativ yoki ilova konstruksiyalar ustida juda ko'p tadqiqotchilar ish olib borganlar.

Hozirgi bolgar badiiy nasrda partsellyatsiya hodisasini batafsil tadqiq etgan M. O. Stupkinaning ko'rsatishicha yozma nutqda parsellyativ qurilmalarning yuzaga kelishi olimlar tomonidan ancha ilgari qayd etilgan. Xususan, bolgar

<sup>15</sup> Хайдаров Ш. Кўрсатилган диссертация. Б. 146.

<sup>16</sup> Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. — Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси 2001 й

tilshunosi I. Xadjav o‘tgan asrning 30 yillarida shunday konstruksiyalarni birinchilardan bo‘lib tilga olgan. U gapning asosiy tarkibidan “vaqtdan oldinroq” nuqta qo‘yish yo‘li bilan muayyan qismni uzib olish mumkinligiga e‘tibor qaratgan. Ayni shu o‘rinda M. O. Stupkina rus tilshunosi L.Y. Maksimovning yozma nutqda gapni bo‘laklash hodisasini ifodalash uchun 1936 yilda “parsellyatsiya” termini qo‘llaganligini, shuningdek, 50 yillarda A.S. Efremov ham (bunday konstruksiyalarni sintaktik me‘yorlardan chekinish sifatida baholagani holda). Ana shunday qurilmalar uchun ayni “partsellyatsiya” termini taklif etganligini aytadi<sup>17</sup>.

Partsellyatsiya muammosiga qiziqish uni turli tomondan o‘rganish rus tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmida boshlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Rus tilshunosligida parsellyativ konstruksiyalar bilan bog‘liq muammoning o‘rtaga tashlanilishi va lingvistik jihatdan o‘rganilishini Y.V.Vannikov, E.A. Ivanchikova, V.A. Shitov, A.M. Ustinov, G.N Ribakova, L.A. Ivanova, J.E. Petrashevskaya, V.N. Strelstov, O.B. Aleksandrova kabi tilshunoslarning ilmiy ishlarida ko‘rishimiz mumkin.

Partsellyatsiya hodisasi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish hali hanuz nihoyasiga yetgan emas. 2000-2007-yillar orasida rus tilshunosligiga bag‘ishlangan jiddiy dissertatsion tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, R. O. Zelepukin taniqli rus adibasi V. Tokarevaning asarlarida uchraydigan partsellyativ konstruksiyalar ustida dissertatsion tadqiqot olib borgan.

Keyinchalik I. V. Alekseenko zamonaviy rus tilshunosligida partsellyativ konstruksiyalarning o‘rganilishini va partsellyatsiyaning matni shakllantirish imkoniyatlarini, Y. V. Bogayavlenskaya esa rus va fransuz tillaridagi parsellyativ konstruksiyalarni qiyosan o‘rgandi.

O‘zbek tilshunosligida esa parsellyativ konstruksiyalar yuqorida ta’kidlanganidek, “ilovali (yoki ilova) konstruksiyalar” degan nom ostida tekshirilgan. 2010-yilda esa Sh. Haydarov “Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning qo‘llanilishi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

---

<sup>17</sup> Хайдаров Ш. Курсатилган диссертация. Б. 29.

Dissertatsiyada badiiy matnda uchraydigan parsellyativ konstruksiyalar ustida qizg'in ish olib borilgan hamda "ilovali konstruksiyalar" va "parsellyativ konstruksiyalar" o'rtasidagi farq, parsellyativ konstruksiyalar va ularning boshqa yondosh hodisalardan farqi kabi ko'plab masalalar aniq daliliy misollar asosida yoritilgan.

Partsellyatsiya hodisasiga rus tilshunosligidagi lingvistik terminlar izohiga bag'ishlangan lug'at-ma'lumotnomada shunday izoh berilgan: "Partsellyatsiya gapning shunday bo'linishiki, unda jumlaning mazmuni bitta emas, balki ikki va undan ortiq intanatsion-ma'noviy nutqiy birliklarda reallashadi. Bunday birliklar biri-ikkinchisidan chegaralangan holda ketma-ket keladi"<sup>18</sup>. Shu bilan birgalikda lug'at mualliflari "Bu hodisa parsellyatsiya ro'y bergan (uziladigan, bo'linadigan) qismlarning asosiy gap tashqarisida bo'lishi bilan boshqa hodisalardan farq qiladi, ilovali qurilmalar asosiy gap doirasida ham, asosiy gap tashqarisida ham bo'lishi mumkin"<sup>19</sup>, degan qarashlarni ilgari surganlar.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar muammosi bilan shug'ullangan rus olimi E. N. Shirayev mazkur hodisa bilan ham qiziqib ko'radi va parsellyatsiya haqida quyidagilarni e'tirof etadi: "Parsellyatsiyaning mohiyati shundaki, ekpressiv-stilistik jihatdan betaraf bo'lgan bitta kommunikativ birlik ekpressiv-stilistik ta'sirchanlikka erishish uchun ikkita birlikka bo'laklanadi"<sup>20</sup>.

Uning fikricha, parsellyatsiya hodisasi ekpressiv-stilistik ta'sirchanlikni oshirish maqsadida qo'llaniladi va natijada bitta kommunikativ birlik ikki qismga – asosiy qism va uzindi qismga bo'linib ketadi. Asosiy qismdan bo'lib olingan bo'lak alohida urg'uga va intonatsiyaga ega bo'ladi. Lekin asosiy qimsiz mazmuniy bo'lakka ega bo'la olmaydi. Parsellyatsiya faqatgina bog'liq tekst, matn sathida o'z aksini topadi.

Parsellyatsiya hodisasi matn yaratishning o'ziga xos usuli ekanligiga tadqiqotchilar tomonidan ko'p bor urg'u berilgan.

<sup>18</sup> Розентал Д. Э., Теленкова М. А. Словар-справочник лингвистических терминов – М., 1985.-С.272.

<sup>19</sup> Розентал Д. Э., Теленкова М. А. Ўша асар. С.273.

<sup>20</sup> Ширяев Э. Н. Бессоюзное сложное предложения в современном русском языке – М.: Наука, 1986 г. С. 12.

Rus tilshunosi rus tili sintaksisi bo'yicha ish olib brogan V. A. Beloshapkova bu hodisani qo'shma gaplar doirasida voqelanishini o'rganib, parsellyatsiya haqida shunday deydi: "Parsellyatsiya qo'shma gapning konstruktiv va kommunikativ tuzilishlari orasidagi tipik mutanosiblikdan funksional qimmatga ega bo'lgan chekinish sifatida faqat shuning uchun mumkin bo'ladiki, mazkur tuzilishlar asosida sistemali ravishda moslik mavjud. Qo'shma gapdagi yagona strukturaning ikki kommunikativ birlikka ajralish imkoniyati qo'shma gapga kommunikativ yaxlitlikning sistemali tarzda xosligi ko'rsatkichidir"<sup>21</sup>.

Parsellyatsiya hodisasi faqat matn sathida sodir bo'ladigan hodisa hisoblanib, bir kommunikativ birlikni ikki yoki undan ortiq kommunikativ birliklarga bo'lib tashlar ekan, bu jarayon gapning aktual bo'linishi bilan bevosita bog'liq hodisa hisoblanadi. Yaxlit kommunikativ birlikning aktual bo'linishida tema va rema munosabati kuzatiladi.

Kommunikativ birlikdagi tema va rema munosabati haqida o'zbek tilshunoslari shunday fikr bildirishgan: "Kommunikativ vazifa nuqtai nazaridan jumlaning tashkil etuvchi elementlar tema (ma'lum) va rema(yangi) qismlarga bo'linadi. Jumlaning rema qismi kommunikativ, eng ahamiyatli qism – kommunikativ markaz hisoblanadi. Savol gapning shu kommunikativ markazini aniqlash uchun beriladi. Jumlaning tema qismi avvaldan ma'lum bo'lganligi uchun savolda ham aynan takrorlanadi. Shunga ko'ra, birinchi holatda (Karim nima qildi? So'rog'iga javob bo'lganda) Karim – tema (ma'lum), Toshkentga ketdi – rema (yangi), ikkinchi holatda (Toshkentga kim ketdi? So'rog'iga javob bo'lganda) Toshkentga ketdi – tema (ma'lum), Karim – rema (yangi), uchinchi holatda (Karim qayerga ketdi? so'rog'iga javob bo'lganda) Karim ketdi – tema (ma'lum), Toshkentga – rema (yangi) hisoblanadi"<sup>22</sup>.

Umuman olganda, parsellyatsiya kommunikativ birlik va sintaksisda shu bilan birga badiiy matnda benihoya muhim ahamiyatga ega bo'lgan sintaktik hodisa hisoblanadi. Parsellyativ konstruksiyalarni matnda qo'llash orqali

<sup>21</sup> Белошапкина В. А. Современный русский язык. Синтаксис, М.: Высшая школа, 1977 г. С. 162.

<sup>22</sup> Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси – Тошкент, Фан – 1992-й б. 94-95.

ekspressiv jihatdan betaraf bo‘lgan standart tuzilishga ega yaxlit kommunikativ butunlik ta’kidni kuchaytirish maqsadida ikki yoki undan ortiq kommunikativ birlikka ajraladi. Parsellyatsiya hodisasi sodda gap, qo‘shma gap va murakkab sintaktik butunlik sathlarida ham namoyon bo‘ladi.

## **1.2. Parsellyatsiyaning yondosh hodisalardan farqi**

O‘zbek tilida parsellyatsiyaning yondosh hodisalari asosan, ilova konstruksiyalar segmentatsiya, ajratilgan bo‘lakli gap kabilar hisoblanadi. Ular parsellyatsiya hodisasi bilan bir qancha o‘xshash va farqli jihatlarga ega.

### **1.2.1. Parsellyatsiya va ilova konstruksiyalar.**

Parsellyativ konstruksiyalar o‘zbek tilshunosligida dastlab “ilova konstruksiyalar” nomi ostida tekshirilgan. F. Is’hoqov (parsellyatsiya hodisasini monografik tarzda o‘rgangan), B. Maskapov va M. Yo‘ldoshev kabi o‘zbek tilshunoslari “parsellyativ konstruksiyalar” bilan “ilova konstruksiyalar” deyarli bitta sintaktik hodisa ya’ni badiiy matnda sodir bo‘ladigan bir turdagi hodisaning ikki xil termin bilan qo‘llanishidir<sup>23</sup>, degan qarashlarni ilgari surganlar.

Ayrim tilshunoslar parsellyativ konstruksiyalar va ilova konstruksiyalar ikki xil hodisani ifodalashini e’tirof etadilar. Bolgar tilshunosi M. O. Stupkina parsellyatsiya va ilova hodisalarini bir-biridan farqlamaslik turli tilshunosliklarda bugungi kunda ham davom etayotganligini aytadi va nazariy adabiyotlarda bu hodisalarga doir to‘rt xil qarash mavjud ekanligini qayd etadi:

“ 1. Parsellyatsiya — ilovaning bir ko‘rinishi (parsellyatsiya mustaqil hodisa sifatida e’tirof etilmaydi va ilovaning xususiy bir turi o‘laroq tasnif qilinadi; parsellyatsiyalangan konstruksiyalar, ilova konstruksiyalarning turi sifatida talqin qilinadi).

2. Parsellyatsiya va ilova —mustaqil hodisalar (parsellyatsiya va ilova mustaqil hodisa sifatida o‘z o‘rniga ega).

<sup>23</sup> Исҳоқов Ф. Ҳозирги замон ўзбек тилида иловали конструкциялар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. 2-китоб—Т.: ЎзФА 1961.-б.285. Маскапов Б. Присоединительные конструкции в узбекском языке. Автореф... Т.:1985. Йўлдошев М. бадий матнинг лингвопоетик тадқиқи. Докт.... дисс...—Т.:2000. – Б.268.

3. Parsellyatsiya va ilova teng tushunchalar (parsellyatsiya mustaqil hodisa sifatida qaraladi, lekin uni ifodalash uchun “ilova” termini qo‘llanadi, bunda parsellyatsiyalangan konstruksiyalar ilova konstruksiyalar sifatida ta’riflanadi).

4. Parsellyatsiya — ekspressiv sintaksis usuli, ilova — aloqa vositasining semantik ottenkasi (parsellyatsiya mustaqil hodisa sifatida qaraladi, uning ifodasi uchun “parsellyatsiya” termini qo‘llanadi, ilova aloqa vositasining semantik ottenkasi sifatida tasniflanadi)<sup>24</sup>.

Ushbu qarashlarning birinchisi va uchinchisini o‘zbek tilshunoslari F. Is’hoqov va B. Maskapovlarning qarashlari bilan ayni bir xillikni kuzatish mumkin. Ba’zi o‘rinlarda M. O. Stupkinaning ishida ham parsellyatsiya va ilovaning qorishtirilganligini sezish mumkin. Parsellyatsiya hodisasini ko‘proq badiiy matnda kuzatish mumkin bo‘ladi, shuning uchun ham uni matnga xos xususiyat deb qarash to‘g‘riroq bo‘ladi. Ilova konstruksiyalar esa og‘zaki nutqqa xos hodisa hisoblanadi.

Parsellyatsiya va ilovani farqlash haqida A. P. Skovorodnikovning “parsellyatsiya” va “ilova” tushunchalarining o‘zaro nisbati haqida” nomli maqolasida juda ahamiyatli ma’lumotlar berilgan. A. P. Skovorodnikov parsellyatsiya va ilovaning umumiy va farqli jihatlarini lisoniy faktlar, lingvistik adabiyotlar tahlilidan kelib chiqqan holda shunday izohlaydi: “Ilova - mohiyatan gapning statik aspektiga tegishli hodisa. U o‘z grammatik ma’nosiga (qo‘shimcha axborot ma’nosiga) va o‘z grammatik shakliga (maxsus bog‘lovchilar, bog‘lovchi ifodalar va boshqa formal vositalar) ega bo‘lgan grammatik kategoriyadir. Ayni paytda bu kategoriya markaziy va periferik zonalarga ajraladigan maydon strukturasi ega. Parsellyatsiya — gapning dinamik aspektiga tegishli hodisa. Bu stilistik usul bo‘lib, uning mohiyati gap formulasida qurilgan jumlaning mustaqil jummalarga bo‘laklashdan, boshqacha aytganda, ekspressiv maqsadga muvofiq gapni ikki yoki undan ortiq jumla ko‘rinishida namoyon qilishdan iborat. Parsellyatsiya xilma-xil strukturadagi sodda va qo‘shma gaplarda, shu jumladan,

---

<sup>24</sup>Ступкина М. О. Парселляция в современном болгарском языке (на материали художественной прозы)Санкт Пет.: — 2008.

ilova munosabatlarini ifodalovchi gaplarda ham amalga oshirilishi mumkin”<sup>25</sup>. Olimning bu fikrlariga to‘la qo‘shila olamiz, chunki, chindan ham, parsellyatsiya va ilovaning matndagi o‘rni bir xil bo‘lsa-da, ya’ni har ikkisi ham asosiy qism (gap)dan keyin joylashsa ham, ularning asosiy gapga munosabati tamoman boshqa-boshqadir. Shuni ta’kidlash mumkinki, parsellyativ konstruksiyalar mustaqil kommunikativ hisoblanadi, ilova konstruksiyalardan esa mustaqil kommunikativ birlik bo‘lishi talab qilinmaydi.

Parsellyatsiya hodisasi natijasida bo‘laklanib, gap tashqarisiga chiqarilgan qismni hech qanday leksik-grammatik o‘zgartirishsiz gap tarkibiga qayta kiritish, ya’ni deparsellyatsiyalash mumkin bo‘ladi. Ilova konstruksiyalarda ham ayni shu narsani qilish mumkinday tuyuladi, ammo ilova qilingan qismda har doim ham bu xususiyat kuzatilavermaydi. Parsellyatsiya hodisasi bilan ilova konstruksiyalarni qorishtirib, ya’ni parsellyatsiya va ilova aynan bir hodisa bo‘lsa-da, ularni ikki xil termin bilan atash mumkin, degan qarashlarni ilgari surgan tadqiqotchilardan biri I. Toshaliyev shunday yozadi: “Parsellyatni odatdagi tartib bo‘yicha ko‘chirib betaraf ifoda variantini qayta tiklash ba’zan asosiy qismga ma’lum o‘zgartirishlar kiritishni talab qiladi”<sup>26</sup>. Lekin parsellyatsiyada bu holatga deyarli ehtiyoj yo‘q ekanligini keyingi o‘rinlarda misollar asosida ko‘rib o‘tamiz.

Quyida badiiy asardan keltirilgan misollarga e’tibor qaratamiz: *Ovqatni yedik. Men ham bir kaklik otdim. Charchab o‘tirgan edim, oldingga kelib qo‘ndi, otdim* (Sh. Xolmirzayev, “Bir ko‘rgan tanish” hikoyasi). *Azim shaharga ketishi bilan Ismatni izsiz unutadi; u yerga borib kundalik yumushlari, oilasi, o‘zga birodarlari davrasiga sho‘ng‘iydi* (Sh. Xolmirzayev, “Sog‘inch” hikoyasi). Ushbu misollardagi asosiy gapdan keyin kelgan ajratib ko‘rsatilgan qismlar parsellyativ konstruksiyalar emas, balki ilova konstruksiyalardir, ular alohida kommunikativ birliklar maqomini olmagan, ya’ni jumlagacha xos intonatsiya va pauzaga ega emas. Bu misollardagi ajratilgan qismlar gapga xos intonatsiya va pauza bilan ajratilsa, ular alohida kommunikativ birliklar maqomini oladi va ularni parsellyativ birliklar

<sup>25</sup> Сковородников А. П. О соотношении понятий “парселляция” и “присоединение”// Вопросы языкознания, - М.: наука, 1978, н:6 С, 118-129.

<sup>26</sup> Тошалиев И. Қўрсатилган асар. Б.88.

sifatida baholash mumkin bo‘ladi, ya’ni: *Ovqatni yedik. Men ham bir kaklik otdim. Charchab o‘tirgan edim. Oldimga kelib qo‘ndi. Otdim. Azim shaharga ketishi bilan Ismatni izsiz unutadi. U yerga borib kundalik yumushlari. Oilasi. O‘zga birodarlari. Davrasiga sho‘ng‘iydi.* Ayrim tadqiqotchilar tinish belgilarining qo‘llanilishiga yetarli e’tibor qaratmaydilar, natijada esa parsellyativ konstruksiyalar bilan ilova konstruksiyalarni qorishtirish holati yuzaga keladi.

Yozuvchi o‘z asarida badiiy niyatiga bog‘liq ravishda parsellyatsiyalangan konstruksiyani ham, deparsellyatsiyalangan konstruksiyani ham qo‘llayveradi. Lekin ekspressivlikni ta’minlayman deb, matnda faqat parsellyatsiyalangan konstruksiyani qo‘llashga zo‘r berilsa, albatta, badiiy tasvirda g‘alilik vujudga keladi, matnning lingvopoetik qimmatini pasayadi. Shuning uchun mahoratli yozuvchilar parsellyatsiyalangan va deparsellyatsiyalangan konstruksiyalarning sinonimiyasidan yetarlicha foydalanadilar.

Parsellyatsiya va ilovani gap tarkibidagi inversiyali so‘z tartibidan ham farqlash mumkin. Masalan, *Qo‘l qovushtirib o‘tiraversak, qishlog‘imizni yanchib tashlaydi-ku, bobo!* (X. Do‘stmuhammad “Kiova quyoshi” hikoyasi) gapida *bobo* so‘zi ta’kid maqsadi bilan atayin kesimdan keyin qo‘yilgan va u ilova bo‘lak hisoblanadi. Agar mazkur bo‘lak jumlagacha xos pauza, final tinish belgisi bilan asosiy gapdan ajratilsa, ya’ni: *Qo‘l qovushtirib o‘tiraversak, qishlog‘imizni yanchib tashlaydi-ku. Bobo!* tarzida jumla tuzilsa, *Bobo* parsellyat maqomini oladi, agar qisqa pauza ya’ni dastlabki holat saqlanib qolinsa, u holda *bobo* so‘z shakli ilova maqomida bo‘ladi. Parsellyatsiyalangan konstruksiyalar qismlarining o‘rinlashish tartibining inversiyaga hech bir aloqasi yo‘q. Parsellyatsiya gap sintaktik strukturasi qismlarni teskari yoki noodatiy joylashtirish emas, balki kommunikativ muhim qism ifodasini gapdan tashqariga chiqarishdir<sup>27</sup>. Bu haqda quyidagi asosli fikrlarni bayon qilgan: “Parsellyatsiyaga xos so‘z tartibi tabiatini katta kontekst doirasidagina to‘g‘ri belgilash mumkin. So‘z tartibining gap tuzilishi doirasida (gap ichida) o‘zgarishi parsellyatli tuzilmalarni yuzaga keltirmaydi. Parsellyatsiyada gap tarkibidagi ma’lum tobe (ko‘pincha fakultativ) unsur-so‘z,

<sup>27</sup> Хайдаров Ш. Кўрсатилган диссертация. Б.42

so‘z birikmasi tayanch qismga nisbatan gap oxiriga ko‘chadi. Bu odatda uni gap tuzilmasidan tashqariga chiqarish, asosiy gap tarkibidan ajratish tarzida yuzaga chiqadi”<sup>28</sup>. Lekin tadqiqotchi nima uchundir parsellyatni fakultativ unsur deb hisoblaydi, bu fikrga qo‘shilish qiyin. Parsellyatsiya fikr tarkibidagi muhim qismni ta’kidlash maqsadida uning ifodasini aktual-rematik pozitsiyaga chiqarish usuli hisoblanar ekan, uni fakultativ deyish nazariy jihatdan asosli bo‘lmaydi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, parsellyat alohida jumla maqomida bo‘lishi va asosiy gap ichiga konstruksiyaning leksik tarkibini o‘zgartirmagan holda kira olishi (deparsellyatsiya) shart, ilova esa kommunikativ birlik bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin, uning asosiy gap ichiga kirishi yoki kirmasligi haqida gapirish ilovaning mantiqiy-lisoniy mohiyatiga muvofiq emas. Shuning uchun ham ilova konstruksiya va asosiy gap o‘rtasida vergul ham, nuqta yoki boshqa tinish belgilari ham qo‘llanaverishi mumkin. Ammo parsellyatlarning asosiy gapdan final tinish belgilari bilan ajratilishi tilshunoslikda ko‘p bor ta’kidlangan<sup>29</sup>.

Parsellyatsiyaning asosiy gapdan faqat nuqta bilan emas, balki ikki nuqta, nuqtali vergul, vergul, tire, undov, so‘roq belgisi kabi punktuatsion belgilar bilan ham ajratilishi mumkinligi ba’zi adabiyotlarda ta’kidlanadi<sup>30</sup>. Aytish mumkinki, final tinish belgilari (nuqta, ko‘p nuqta, undov belgisi, so‘roq//undov, undov//so‘roq belgisi) ajratilgandagina parsellyatsiyaning mohiyatiga mos bo‘ladi.

A. A. Vinogradov oldindan o‘ylanganlik — o‘ylanmaganlik parsellyativ va ilova konstruksiyalarni farqlashdagi asosiy mezon ekanligini, ya’ni so‘zlovchi oldindan o‘ylamasdan, nutq oqimi davomida o‘z gapiga qo‘shimcha tarzida aytgan qismlar ilova konstruksiyalar, so‘zlovchi oldindan o‘ylab, atayin o‘z gapidan keyin keltirgan birliklar parsellyat-konstruksiyalar, deydi va ilovaning og‘zaki nutqqa, parsellyatsiyaning esa yozma nutqqa xosligini ta’kidlaydi<sup>31</sup>.

<sup>28</sup> Тошалиев И. Кўрсатилган мақола.

<sup>29</sup> Ступкина М. О. Кўрсатилган мақола, Б. 17, 28, 43, 168-195

<sup>30</sup> Турсунов Б. Парселлирование придаточные предложения в наментском И узбекском языках: Автореф. Дис. ... канд. Филол. Наук.—Л.,1975.—С.

<sup>31</sup> Виноградов А. А. К вопросу о дифференциальности явлений парселлятии и динамического присоединения // Вопросы языкознания, —М. 1981.С. 103

Xullas, parsellyativ va ilova konstruksiyalar o'rtasida bir qator o'xshashliklar (xususan ularning har ikkisi ham asosiy gapdan keyin joylashib, undan intanatsion ajratiladi va sh. k.) mavjud bo'lsa-da, ularning o'rtasida ma'lum jiddiy farqlar borki, ular parsellyatsiya va ilovani alohida-alohida hodisalar sifatida talqin qilishga asos bo'ladi. Ular o'rtasidagi farqlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Parsellyatsiyalangan konstruksiyalarda parsellyat hamisha alohida kommunikativ birlik maqomida bo'ladi, ilovali konstruksiyalarda esa ilova qism kommunikativ birlik maqomida bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Shuning uchun ham parsellyat asosiy gapdan hammavaqt final tinish belgilari bilan ajratiladi, ilova esa asosiy gapdan final va nofinal (vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire kabi) tinish belgilari bilan ajratilaveradi.

2. Parsellyatsiya gapning funksional tomoniga, dinamik strukturasi xos hodisa bo'lsa ilova gapning statik strukturasi xos hodisadir.

3. Parsellyat asosiy gap ichiga konstruksiyaning leksik-grammatik tarkibini o'zgartirmagan holda kira oladi, ya'ni parsellyatsiyalangan konstruksiyani deparsellyatsiyalash mumkin. Boshqacha aytganda, parsellyat asosiy gapning ichidan ajratib chiqarilgani uchun gapning pozitsion strukturasi uning o'rni hamisha ochiq turadi. Ilova esa asosiy gap ichiga konstruksiyaning leksik-grammatik tarkibini o'zgartirmagan holda kira olmaydi.

4. Parsellyatsiyada mavjud ma'lumotning muhim qismini ta'kidlash maqsadi bilan shu qism ifodasi ajratiladi, ilovada esa qo'shimcha ma'lumot, to'ldirish, izoh maqsadi bilan ifoda ilova qilinadi.

5. Parsellyatsiyalangan va ilova konstruksiyalardagi sintaktik jarayonlarning yo'nalishi bir-biridan prinsipial farq qiladi, ya'ni parsellyatsiyadagi sintaktik jarayon harakati markazdan qochma — o'ngga yo'nalgan, ilovali konstruksiyalarda esa sintaktik jarayon harakati markazga intilma — chapga yo'nalgan<sup>32</sup> bo'ladi.

---

<sup>32</sup> Хайдаров Ш. Курсатилган диссертация. Б. 46.

### 1.2.2. Parsellyatsiya va segmentatsiya

Ijodkor o‘z asarini yozar ekan, asarning badiiy qimmatini oshirish maqsadida badiiy matnda parsellyatsiya hodisasi bilan birgalikda unga yondosh hodisa bo‘lgan segmentatsiya hodisasini ham qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Umuman, sintaktik butunliklarni bo‘laklash hodisalariga murojaat qilish gap(matn)da ta’kidlanishi kerak bo‘lgan ma’lum bir so‘zni yoki gap ichidagi konstituent fikr ifodalovchi bo‘lakni alohida taqdim qilish va og‘zaki so‘zlashuv intonatsiyalarini badiiy matnda aynan aks ettirish imkoniyatidir.

Segmentatsiya nutqiy hodisa bo‘lib, turli-tumun kommunikatsiya jarayonlarida so‘zlovchining u yoki bu badiiy maqsadiga uyg‘un tarzda xilma-xil ko‘rinishlarga ega bo‘ladi<sup>33</sup>, parsellyatsiya ham segmentatsiyaning bir ko‘rinishi sifatida qaraladi. Chunki, segmentatsiyada mantiqan yaxlit sintaktik strukturani bo‘laklash va bu bo‘lakni ta’kidli pozitsiyaga (bu pozitsiya gapning oldi ham, oxiri ham bo‘lishi mumkin) chiqarishni nazarda tutadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, parsellyatsiya yaxlit sintaktik strukturani bo‘laklash va bu bo‘lakni gap oxiriga — ta’kidli pozitsiyaga chiqarishdir. Shunday ekan, parsellyatsiyani segmentatsiyaning alohida bir ko‘rinishi deyish mumkin.

Ko‘pincha, tilshunoslikda segmentatsiya deyilganda, gap tarkibidan bo‘laklanib chiqarilgan qismni gapning oldiga chiqarish tushuniladi. R. O. Zelepukin parsellyatsiya va segmentatsiyaning farqli jihatlarini aniq ko‘rsatib, shunday yozadi: “Jumladagi muayyan unurni ta’kidlash va unga urg‘u berish jihatidan parsellyatsiya va segmentatsiya o‘zaro bog‘liq. Lekin segmentatsiyaning tasniflovchi belgisi parsellyatsiyadagiday jumlaning remasini emas, balki temasini intonatsion ta’kidlash va prosodik ajratishdir. Mana shunga ko‘ra, parsellyatsiyani rematik segmentatsiya sifatida tavsiflash mumkin”<sup>34</sup>.

O‘zbek tilshunosi M. Yo‘ldoshev segmentatsiya natijasida atov gaplar yuzaga keladi, matnda atov gaplar hamisha poetik aktuallashgan bo‘ladi, bundan

<sup>33</sup> Рогожникова Р. П. О соотносительных конструкциях простого и сложного предложения, построенных по принципу сегментации // Мысли о современном русском языке. —М.: 1969. С. 118-119.

<sup>34</sup> Зелепукин Р. О. Парселляция в художественной прозе В. Токаревой: структура, семантика, текстообразующие функции. Автореф. Дисс. ... канд. филол. наук. —М., 2007. С. 13.

ijodkorlar o‘z badiiy maqsadlariga muvofiq tarzda foydalanadilar<sup>35</sup>, degan fikrlarni ilgari suradi. Quyidagi badiiy asardan olingan parchalarda atov gaplar ana shu tarzda poetik jihatdan aktuallashtirilgan: *Qatig... Qatigdan kim yuz o‘giradi? Hademay kun qizib ketadi* (Sh. Xolmirzayev “Olma yemadim” hikoyasi). *Olako‘z! Bitta o‘zi emas, kimnidir ko‘tarib kelardi* (Sh. Xolmirzayev “Bir ko‘rgan tanish” hikoyasi). *Bug‘doypoya! Bizdan ilgarigi rais bu yerni odamlarga berib qo‘ygan ekan* (Sh. Xolmirzayev “Og‘ir tosh ko‘chsa” hikoyasi). *Bibigul! Ana Bibigul!.. U ham menga o‘xshab ketadi, faqat rangi tiniq, oq!* (Sh. Xolmirzayev “Qariya” hikoyasi). *Ezmalik... Rahima buvida ana shu xislat ham paydo bo‘ldi* (Sh. Xolmirzayev “Odam” hikoyasi). Bu parchalardagi *Qatig*, *Olako‘z*, *Bug‘doypoya*, *Bibigul*, *Ezmalik* birliklari segmentatsiya natijasida tegishli gaplardan tashqariga — ta’kidli pozitsiyaga chiqarilgan, alohida gap, ya’ni atov gap maqomini olib, logik va poetik aktuallashtirilgan. Aktual bo‘laklanish nazariyasiga muvofiq, jumlada rema aktual bo‘lak hisoblanadi, tema esa ma’lum axborot ifodasi sifatida idrok qilinadi, ammo segmentatsiya natijasida aynan tema alohida mustaqil pozitsiyani egallab, alohida jumla sifatida aniq ifodalangan aktuallik kasb etadi.

Aytish mumkinki, segmentatsiyada ham asosiy gapdan oldingi pozitsiyaga chiqarilgan bo‘lakning asosiy gapdagi o‘rni bilini turadi, bu bo‘lakni asosiy gap tarkibiga “qaytarib tiklash” mumkin, ya’ni segmentlangan jumlaning desegmentatsiyalash imkoniyati ham mavjud. Uning deparsellyatsiyalashdagi farqi shundaki, gapning leksik-grammatik tarkibini o‘zgartirmagan holda desegmentatsiyalash aksar hollarda mumkin bo‘lmaydi. Segmentatsiyada tema yoki tasavvur nomi sifatida tashqariga chiqariladigan bo‘lak, asosiy gap tarkibida qanday grammatik shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar har doim bosh kelishikdagi so‘z yoki birikma shaklida atov gap bo‘lib keladi. Asosiy gapdan oldinga chiqarilgan bo‘lakning asosiy gapdagi o‘rnida biron deytik birlik qo‘llangan bo‘ladi yoki bu o‘rin butunlay bo‘sh qoladi. Yuqorida tahlilga tortilgan *Qatig... Qatigdan kim yuz o‘giradi? Hademay kun qizib ketadi.. Olako‘z! Bitta o‘zi emas, kimnidir ko‘tarib kelardi.. Bug‘doypoya! Bizdan ilgarigi rais bu yerni odamlarga*

<sup>35</sup> Йўлдошев М. бадий матннинг лингвопоетик тадқиқи: Филол. фанлари доктори .... дис. —Т.:2009. Б. 270.

*berib qo'yg'an ekan., Bibigul! Ana Bibigul!.. U ham menga o'xshab ketadi, faqat rangi tiniq, oq!., Ezmalik... Rahima buvida ana shu xislat ham paydo bo'ldi. Shaklida segmentlangan jummalarni Qatiq qatiqdan kim yuz o'giradi? Hademay kun qizib ketadi., Olako'z bitta o'zi emas, kimnidir ko'tarib kelardi., Bizdan ilgarigi rais bug'doypoyani odamlarga berib qo'yg'an ekan., Bibigul ham menga o'xshab ketadi, faqat rangi tiniq, oq., Rahima buvida ezmalik xislati ham paydo bo'ldi .* shaklida desegmentatsiyalash mumkin. Bunda ko'rinib turganiday, *Qatiq* segmenti va *Olako'z* segmenti asosiy gapga gapning leksik-grammatik tarkibini o'zgartirmagan holda desegmentatsiyalanmoqda, bu yerda faqatgina punktuatsion o'zgarishlar bo'layotganligini kuzatish mumkin. Keyingi misollardagi segment bo'laklar desegmentatsiyalanganda *Bug'doypoya* segmenti asosiy gapdagi *bu yerni* (ko'rsatish olmoshi bilan birga kelgan vositasiz to'ldiruvchi) o'rnini, *Bibigul* segmenti asosiy gapdagi *u* olmoshi (ega) o'rnini, *Ezmalik* segmenti asosiy gapdagi *ana shu* olmoshi (aniqlovchi) o'rnini egallaydi.

Yuqorida ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi pozitsiyasidagi bo'laklarning segmentatsiyasini ko'rdik. Demak, asosiy gap tarkibidagi har qanday bo'lak segmentlanishi va desegmentlanishi mumkin. Segmentatsiyalangan konstruksiya desegmentatsiyalangan konstruksiyalarning ekspressiv varianti sifatida voqelanadi. Bir gap doirasida aytilishi mumkin bo'lgan fikr segmentatsiya natijasida alohida ekspressivlik, emotsionallik va ta'kid maqsadli bo'laklarga ajratilib ifodalanadi.

Umuman olganda, segmentatsiya va parsellyatsiya hodisalari ekspressiv sintaksisdagi so'z qo'llash usuli bo'lib, bir qator umumiy va farqli jihatlarga egadir, xususan, har ikki hodisa ham mohiyatan yaxlit sintaktik butunlik hisoblangan gapni bo'laklab, ikki yoki undan ortiq kommunikativ birlikka ajratishdan iborat; parsellyativ konstruksiya deparsellyatsiyalana olgani kabi segmentlangan konstruksiya ham desegmentlana oladi va bu holat ikki hodisa o'rtasidagi umumiylikni yuzaga keltiradi. Segmentatsiya va parsellyatsiya hodisalari o'rtasidagi farqli, ya'ni ularni alohida-alohida hodisalar sifatida baholashga imkon beradigan jihatlar ham mavjud, xususan, segmentatsiya ta'kidlanmoqchi bo'lgan bo'lakni asosiy gapning oldiga alohida kommunikativ

birlik sifatida chiqarsa, parsellyatsiya esa ta'kidlanmoqchi bo'lgan bo'lakni asosiy gapning oxiriga kommunikativ birlik maqomida joylashtiradi; segmentatsiya natijasida ajratilgan qism o'zbek tilida hamma vaqt atov gap maqomida bo'ladi, parsellyatsiya natijasida ajratilgan qism esa turli kommunikativ-sintaktik strukturali jumla bo'lishi mumkin.

### **1.2.3. Parsellyatsiya va paranteza**

Ekspressiv sintaksisda o'rganilayotgan va ba'zi jihatlari bilan parsellyatsiyaga o'xshashlikni yuzaga keltirib, unga yondosh hodisa sifatida qaraladigan paranteza hodisasi mavjud bo'lib, u ham parsellyatsiya singari badiiy adabiyotda muhim lingvopoetik qimmat kasb etadi. Paranteza hodisasida ham asosiy gapga aloqador qism, gapdan so'ng ifodalanadi.

Paranteza hodisasi badiiy matnda yozuvchining badiiy maqsadini qulay anglash imkoniyatini yaratishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur hodisa haqida badiiy matn lingvopoetikasi bilan shug'ullangan taniqli o'zbek mutaxasislari shunday fikrlarni bayon qilganlar: "Paranteza badiiy asarda muallif va qahramonlar nutqida kelishi mumkin. Aytilmoqchi bo'lgan fikrga aloqador izohlar, qo'shimcha ma'lumotlar qavs ichida berib boriladi. Intonatsion, grafik va sintaktik jihatdan mustaqil bo'lgan kiritma konstruksiyalar asarda nutqning to'la anglanishi uchun zaruriy informatsiyalarni berish, tinglovchi yoki kitobxon uchun noaniq bo'lgan o'rinlarga aniqlik kiritish, izohlash, eslatish, his-tuyg'larni ifodalash kabi maqsadlarda qo'llaniladi. Asar qahramoni bilan kitobxon o'rtasida o'rtasida o'ziga xos "sirdoshlik" illuziyasini yaratadi. Qahramon "aytmasa bo'lmaydigan" gapini qavs ichida berish orqali go'yo kitobxonning qulog'iga pichirlayotganday muhit yaratadi. Bu esa kitobxonning qahramonga nisbatan ishonchini orttiradi va yaqinlashtiradi. Paranteza funksiyasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ayrimlari kitobxonni "parda ortidagi sir"dan ogoh qilishga xoslangan bo'lsa, ayrimlari yangi informatsiyaga tayyorlash vazifasini bajaradi. Ayrim

parantezalarda voqelikka nisbatan muallif yoki qahramonning ijobiy munosabati ifodalangan bo'lsa, ayrimlarida kinoya va kesatq yuklangan bo'ladi"<sup>36</sup>.

Haqiqatdan ham, parantetik konstruksiyalar badiiy asarda qahramonlar nutqini individuallashtirishda, yozuvchining ifoda usulini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. D. Jamoliddinova parantetik konstruksiyalarning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etib, kirish va kiritma terminlari o'rnida paranteza terminini qo'llash ma'qul deydi: "Paranteza" terminida "kiritmalilik, kiritish" va "qavs (yoki boshqa tinish belgilari) bilan ajratilganlik" ma'nolari aniq ifodalanadi. Zotan, kirishlarning ham, kiritmalarning ham gapdagi pozitsion-struktural mohiyati shundan iboratki, ularning har ikkisi ham asosiy gap tarkibiga tashqaridan kiritiladi"<sup>37</sup>.

D. Jamoliddinova parantez birliklarning lingvopoetik xususiyatlari haqida ham tadqiqot olib borgan holda shunday qimmatli fikrlarni bayon qiladi: "ba'zi tadqiqotchilar parantezalarning nutqni ekspressiv "yumshatishi" ("разрыхление"), yani ekspressivlikning ifodalanishi uchun "nutq tuprog'ini yumshatib, donador qilib", qulay sharoit haqida ko'p gapiradilar. Albatta, badiiy matnda chinakam badiiyatning, poetik intonatsiya va poetik ta'kidning tugal ifodalanishida parantezalarning bu xususiyati muhimdir."<sup>38</sup> Aytish joizki, ayni shu xususiyat parsellyatsiya hodisasida ham mavjudligi uning ham lingvopoetik qimmatini oshiradi. Ko'rinib turganidek, bu holatlar har ikki hodisaning ya'ni parsellyatsiya va parantezaning bir-biriga o'xshash jihatlarini tashkil qiladi.

Parsellyatsiyada bo'lgani kabi paranteza hodisasida ham gap asos va unga aloqador qism sifatida bo'laklangan bo'ladi. Lekin parantezada parsellyatsiya deparsellyatsiyalana olgani kabi deparantezalana olish xususiyati mavjud emas. Parantezali konstruksiyalar gapdan qavs, vergul yoki boshqa tinish belgilari bilan ajratilgan gap o'zicha mustaqil holda shakllangan bo'ladi. Masalan: *Eski do'kondor tanishi ikki to'p shoyini boshqaga pullab yuboribdi — savdo ahli*

<sup>36</sup> Йўлдошев М. Ядгаров Қ. Бадий матнинг лисоний таҳлили фанидан амалий машғулотларни ташкил этиш.—Т.: ТДПУ, 2007. Б. 67.

<sup>37</sup> Жамолитдинова Д. Бадий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоетик хусусиятлари. Филол. Фанлари номзоди диссертатсия, автореф.—Т.:2009. Б. 8.

<sup>38</sup> Жамолитдинова Д. Кўрсатилган диссертатсия, автореф. Б. 18.

*orasida bunaqangi lafzsizlikni To‘xtaboy ko‘rmagandi—o‘shani amallab To‘qmoqqa yetkazib olsa, u yerdagi bolalariga choychaqa chiqardi. (X. Do‘stmuhammad “To‘xtaboyning boyliklari” hikoyasi). Maydonchadagi katta daraxtlar orasida bir qayrog‘och bo‘lib, Oybek uning tagida to‘xtab guring qilishni sevardi. (Bir kuni keksayib, sochlarimizga oq tushganda: “Zarifa, essiz, o‘sha dev qayrog‘ochning rasmini oldirib qo‘ysak bo‘lar ekan”, —degan.). (Zarifa Saidnosirova “Oybegim mening” asari). Uyga kirishsa... yigirmadan ortiq uvada-chuvada yopingan bolakaylar, ikki katta yog‘och korson aylanasiga cho‘kkalashib, go‘shtsiz shilpildoqni (qaysi cho‘pon ko‘klamda qo‘y so‘yadi) shapir-shupur tushurayotgan ekan! ( O. Yoqubov “Adolat manzili” qissasi). Egnida uzun kulrang plash (ertalab uchrashuvga ketayotganida nogohon jala quygandi), boshida qo‘qon aravaning g‘ildiragiday ulkan, qora shlyapa, novchadan kelgan Veteran momoga hozirgina tushida ko‘rgan rahmatlik jufti haloli Mamat merganni eslatdi-yu o‘pkasini bosolmay yig‘lab yubordi. ( O. Yoqubov “Adolat manzili” qissasi). Yoshligida novcha, xushqad odam, keyinchalik semizlikda “Volga”ga sig‘may qolib (odamlarning aytishicha direktor sonigacha osilib tushgan qornini charm meshga solib, ko‘ylagi ichidan bo‘yniga osib yurarmish!) maxsus yasattirilgan mana shu “Gazik”ka o‘tib olgan, shu boisdan ham u butun Marjontovga otning qashqasidek ma‘lum edi. ( O. Yoqubov “Adolat manzili” qissasi). Ertalab qaysi bir maktabga uchrashuvga ketgan Beteran (momo uni qachon shunday deb chaqira boshlaganini o‘zi ham bilmaydi!) hanuz qaytmabdi. ( O. Yoqubov “Adolat manzili” qissasi). Bir kuni O‘rol ikkovimiz Shayxantoxurdagi maqbaraning suratini (yonidagi qurib qovjiragan, necha asrlik chinorlari bilan) yasagan edik. (Bu rasm kimgadir yoqib qolgan — uni hadya qilishga to‘g‘ri kelgan). (Zarifa Saidnosirova “Oybegim mening” asari). Yuqorida ajratib ko‘rsatilgan qismlarning barchasi paranteza hisoblanadi.*

Xulosa qilib aytganda, parsellyatsiya va paranteza o‘zaro o‘xshash va ayni paytda ko‘plab xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanib turuvchi sintaktik hodisalardir. Parsellyatsiya natijasida gap ikki yoki undan ortiq kommunikativ birlikka ajratiladi va ajratilgan qism gapning oxiriga chiqariladi, parantezada esa

mavjud gap tarkibiga boshqa gap yoki nokommunikativ birlik ya'ni so'z, so'z birikmasi, ibora kiritiladi. Parantezalar uchun yozuvda qavs, vergul, tire kabi tinish belgilari qo'llansa, parsellyatsiyada esa hamisha final tinish belgilari (nuqta, ko'p nuqta, undov, so'roq, undov//so'roq, so'roq//undov) qo'llanadi.

#### 1.2.4. Parsellyatsiya va ajratilgan bo'lak

Parsellyatsiyaga yondosh hodisalardan biri sifatida talqin qilinadigan hodisa deb ajratilgan bo'lakni olishimiz mumkin bo'ladi. U ham ba'zi xususiyatlariga ko'ra parsellyatsiyaga o'xshab ketadi. O'zbek tilshunosi professor A. G'ulomov o'zbek tilidagi ajratilgan bo'laklarni shunday izohlaydi: “Gapning ikkinchi darajali bo'laklari fikrni odatdagiga qaraganda kuchli, ifodali, ta'sirli qilib berish, bu bo'lakni mazmun jihatidan kuchaytirish, grammatik jihatdan mustaqil holga qo'yish (nisbiy mustaqillik) uchun maxsus intonatsiya bilan, pauzalar bilan ajratiladi. Masalan: *Onam, mehribonim, keldi*. Bu misoldagi *mehribonim* bo'lagi *onam* bo'lagining aniqlovchisidir: *mehribon onam*. Bu aniqlovchini aniqlanmishdan keyin keltirib, uni ikki tomondan maxsus pauza bilan, maxsus intonatsiya orqali ajratib aytish natijasida shunday o'zgarishlar sodir bo'ladi: 1. bu bo'lakning mazmun ahamiyati avvalgiga nisbatan kuchaydi: uning mazmuni ta'kid bilan berildi, unga diqqat kuchaytirildi. 2. Buning natijasida u bo'lak avvalgi holatdagiga nisbatan kuchaygan ayrimlik va mustaqillikka (nisbiy mustaqillikka)ega bo'ldi. 3. Aniqlovchining ajratilishi fikrni emotsionallik bilan, ifodali, ta'sirli qilib berishga xizmat qiladi”<sup>39</sup>.

Gapning ajratilgan bo'laklari ham parsellyatsiyaga o'xshab ketadi. Har ikkala hodisa ham asosiy gapdan alohida intonatsiya va pauza bilan ajratiladi va ekspressiyani yuzaga keltiradi. Ajratilgan bo'laklar ham alohida tinish belgilar tizimiga ega bo'lib, unda maxsus tinish belgisidan keyingi qism alohida ta'kidni ifodalash uchun xizmat qiladi. Quyida mazkur hodisaga oid misollarni ko'rib chiqamiz: *Biz Turkiston shahrida, Qarnoq ko'chasining katta maydonga kelib taqalgan joyida, burchak hovlida yashar edik*. (Z. Saidnosirova “Oybegim mening” essesi “Bolalik xotiralari” bo'limi). *Faqat... tilanchining qopchig'idek*

<sup>39</sup> Фуломов А., Аскарлова М. Ҳозирги Ўзбек адабий тили. Синтаксис. —Т.: Ўқитувчи, 1987. Б. 147.

kenggina yon kissamni paypaslab topgan kalitim mu-uzday— **xuddi qish bo‘yi qor ostida zanglab yotgan temirdek** qo‘limga chippa yopishganidan etim junjikib ketdi. (X. Do‘stmuhammad “Ko‘z qoorachig‘idagi uy” hikoyasi). *Tejamli saranjom bo‘lish ayb emas, lekin to‘rt qadoq go‘shning narxini kelishgunicha qassob bilan qariyb yoqa bo‘g‘ishishdan toymaydigan qaynona yoki qaynota hademay oshxonasiga, ro‘zg‘origa bekalik qiladigan kelinchakni ne ko‘ylarga solarkin?..* (X. Do‘stmuhammad “Yoqub izquvarning hiylasi” hikoyasi). *Faqat... doimo saranjom-sarishta, ozoda saqlanadigan bog‘ning odamlar ko‘zidan yiroq ovloq burchaklari qarovsiz, e‘tiborsiz tashlab qo‘yiladi.* (X. Do‘stmuhammad “O‘n birinchi eshik” hikoyasi). *Kechqurun osh suzsak bir nasiba kam, Qo‘msayman, birovni — allakimimni.* (G‘. G‘ulom “Sog‘inch” she‘ri). *Unsin uchun, bechora qiz uchun, bu qanday mudhish, motam!* (Oybek “Qutlug‘ qon” romani). *O‘z qo‘li bilan o‘z nabirasini o‘ldirgan, kecha-yu kunduz kayf-u safodan bosh ko‘tarmagan, to‘yda ham, azada ham to‘xtovsiz ichadigan Husayn Bayqaro saltanatimizni halokatdan saqlab qolishga qodir emas!* (I. Sulton, Uyg‘un “Alisher Navoiy” drammasi). *Asfalt yo‘lning yonginasida, chuqur jarlikning tagida, ko‘m-ko‘k shishadek tiniq Bo‘zsuv oqardi, jarlikning ikkinchi tomonida, balandlikda, bir-biriga qo‘shilib ketgan yam-yashil bog‘lar tutash bir o‘rmonzor kashf etardi.* (O. Yoqubov “Muqaddas”qissasi). *Otam — men uni bilgan chog‘larimda — omoch surmagan, ketmon chopmagan bo‘lsa ham, dehqonchilikni bir necha xizmatkorlar bajargan* (Z. Saidnosirova “Oybegim mening” essesi “Bolalik xotiralari” bo‘limi).

Badiiy asardan olingan misollardan ko‘rinib turganidek, gaplarda alohida ta’kid olishi, ya’ni kuchli darajada aniqlanishi kerak bo‘lgan bo‘laklar alohida intonatsiya va pauza bilan gap tarkibida chegaralanmoqda va ularga tegishli tinish belgilari qo‘llanilib ajratilgan bo‘lak hosil qilinmoqda. Bu bo‘laklarda mantiqan ta’kid holati sezilib, matnning lingvopoetik qimmatini oshirayotganligini kuzatish mumkin.

Sirasini aytganda, gapning ajratilgan bo‘laklari ko‘plab mutaxasislarning ta’riflashicha, muhim stilistik vositalardan biri hisoblanadi. Ajratilgan bo‘laklar

gapga xos mustaqil intonatsiyaga ega emas, ular faqatgina murakkab fikrni sodda, ixcham va ta'sirli qilib ifodalash imkonini beradi. Ayni shu jihatlari bilan mustaqil kommunikativ-sintaktik birlik bo'lolmaydi. Bu holat uni parsellyatsiya hodisasidan farqli hodisa ekanligini isbotlay oladi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, parsellyatsiya hodisasi kommunikativ-sintaktik va semantik jihatdan ma'lum darajada mustaqillik kasb eta oladi. Shuni ham qayd etish joizki, ajratilgan bo'lak gap tarkibining ichida kuzatiladi, parsellyatsiya esa mohiyatan gapning oxiriga chiqarilib alohida jumla sifatida voqelanadi.

## II BOB. GAP BO‘LAKLARI SHAKLIDAGI PARSELLYATLAR

Ishning mazkur bobida gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatlar ustida mulohaza yuritiladi. Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning qo‘llanilishi mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan va unda o‘zbek tilidagi parsellyativ konstruksiyalar haqida batafsil ma’lumot bergan tadqiqotchi Sh. Haydarov gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatlarni shunday izohlaydi: “Badiiy matnning sintaktik shakllanishi tekshirilganda turli sintaktik vazifada keluvchi gap bo‘laklarining parsellyat sifatida final tinish belgisidan keyinga chiqarilganligini kuzatish mumkin. Parsellyativ konstruksiyalar tabiatini o‘rganish jarayonida sintaktik jihatdan muayyan gap bo‘lagi vazifasida kelgan “uzindi” bo‘laklarning alohida ekspressiv maqsadlarda qo‘llanilganligi kuzatiladi.”<sup>40</sup> Haqiqatdan ham, badiiy matnda bir gap doirasida aytish mumkin bo‘lgan fikrni ikki yoki undan ortiq kommunikativ bo‘lakka bo‘lib ifoda qilish ko‘p uchraydi. Albatta, bu holat yozuvchi istagiga muvofiq ravishda amalga oshadi. Masalan: *Boy fermerlar paydo bo‘layapti. O‘zimizning sovxozdayam bor... Misir aka sovxozning yarmini fermerlarga bergan. Texnikaniyam...* (Sh. Xolmirzayev “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi...” hikoyasi). Keltirilgan misolda vositasiz to‘ldiruvchi parsellyatlangan.

### 2.1. Bosh bo‘laklar shaklidagi parsellyatlar

#### 2.1.1. Ega shaklidagi parsellyat

Ega gapning bosh bo‘laklaridan biri bo‘lib, fikr ifodasida, gap tuzumida alohida o‘rin tutadi. U gapning nima haqda aytilganini, fikrning nima to‘g‘risida bayon etilganini ko‘rsatuvchi bosh bo‘lakdir<sup>41</sup>. Bugungi o‘zbek tilshunosligida kesimning gapni shakllantiruvchilik maqomi, eganing esa bosh bo‘laklardan biri bo‘lsa-da, gapda hamisha ham formal ifodalanishi shart emasligi haqidagi qarash ancha barqarorlashganligi tilshunoslar tomonidan alohida ta’kidlangan<sup>42</sup>. Ammo shunday holatlar borki, gapda eganing ifodalanishi zaruriyatga aylanadi. Xususan,

<sup>40</sup> Хайдаров Ш. Кўрсатилган диссертация. Б.64.

<sup>41</sup> Абдурахмонов Ғ. А., Шоабдурахмонов Ш. Ш., Ҳожиёв А. П. Ўзбек тили грамматикаси. ИИ том. Синтаксис. Т.: “Фан” — 1976. Б. 121.

<sup>42</sup> Маҳмудов Н. Кесимнинг гапдаги мақоми // Ўзбек тили ва адабиёти. — Т.: “Фан”, 2009, Б. 44-56.

badiiy matnda mantiqiy ta'kid zarur bo'lganda, ega aniq ifodalanadi va hatto uning parsellyatsiyaga uchrashi kuzatiladi.

Gap tarkibida ega struktura jihatidan bir so'z (yoki turg'un birikma) bilan, ikki va undan ortiq so'z yoki turli so'zlar bog'lanmasi bilan ham ifodalanishi mumkin. Mazkur ishda o'rganilayotgan sintaktik hodisa (parsellyatsiya hodisasi) doirasida ham eganing turli shakllarda kelishini kuzatish mumkin. Badiiy asarlardan to'plangan faktik materiallarga asoslangan holda parsellyat haqida shunday deyish mumkin: badiiy matndagi gapda parsellyat sifatida ajratilgan bo'lak muallifning estetik niyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Bunda, asosan, ega sintaktik maqomidagi bo'lak mavjud gap tarkibidan parsellyat sifatida chiqarilganda, o'sha bo'lak aynan ta'kidlanayotgan bo'ladi. Masalan: *Ufq ham bo'zarib kelar, shamol kuchayib, badanni junjiktirardi...Yana shitirlash!* (Sh. Xolmirzayev "Tikan orasidagi odam" hikoyasi) parsellyatli konstruksiyasida ega sintaktik pozitsiyasidagi bo'lak parsellyatsiyalangan, u deparsellyatsiyalanganda ega o'z o'rniga shunday joylashadi: *Yana shitirlash ufq ham bo'zarib kelar, shamol kuchayib, badanni junjiktirardi.*

Quyidagi misollarda ham shunga o'xshash holatni kuzatish mumkin: *Mana, saksoninchi yillarni ham ko'rayapman. Detdom. Sag'irlik.* (Sh. Xolmirzayev "Qadimiy baqtrya tuprog'ida" essesi). Ushbu gapni shunday deparsellyatsiyalash: *Mana detdom, sag'irlik saksoninchi yillarni ham ko'rayapman* tarziga yoki: *Mana, saksoninchi yillarni ham ko'rayapman detdom, sag'irlik* shakliga keltirish mumkin. *Jiydalar gullagan. Unisinig shohida bir bulbul sayrasa, bunisinig shohida bir bulbul sayraydi. Xo'roz-makiyon. U yerda o'troq qarg'alar ham bor ekan. Quv-quv qilib, birining ketidan biri uchib o'tadi. Umuman, jonli jonivor juft-juft bo'layotgan payt.* (Sh. Xolmirzayev "Qadimiy baqtrya tuprog'ida" essesi). Mazkur kontekst doirasidagi parsellyatni o'ziga tegishli gap ichiga shunday kiritish mumkin: *Jiydalar gullagan. Xo'roz-makiyon: unisinig shohida bir bulbul sayrasa, bunisinig shohida bir bulbul sayraydi. U yerda o'troq qarg'alar ham bor ekan. Quv-quv qilib, birining ketidan biri uchib o'tadi. Umuman, jonli jonivor juft-juft bo'layotgan payt., Maktab zali, o'rtada archa... Atrofdan o'quvchilar.*

*Hammasining og'zi qulog'ida. Bayram!* (SH. Xolmirzayev “Qorbobo keladi” hikoyasi) bu misolda yozuvchi ekspressivlikni kuchaytirish maqsadida bir gap doirasida aytish mumkin bo'lgan xabarni segmentatsiya va parsellyatsiya hodisalaridan foydalangan holda o'quvchiga yetkazib bera olgan. Ushbu gap desegmentlanganda va deparsellyatsiyalanganda shunday gap yuzaga kelishi mumkin: *Maktab zali o'rtada archa, atrofda o'quvchilar bayram hammasining og'zi qulog'ida., Lekin rais bobodan aloqang uzilsa, o'lasan-da, oshnajon. Unda biz nima qilamiz? Erta-indin qish tushadi... Ovoragarchilik!..* (SH. Xolmirzayev “Og'ir tosh ko'chsa” hikoyasi) bu ega shaklidagi parsellyat asosiy gapga quyidagicha tiklanadi: *Lekin rais bobodan aloqang uzilsa, o'lasan-da, oshnajon. Unda biz nima qilamiz? Ovoragarchilik erta-indin qish tushadi., Yomg'irli, loyli tor ko'chamizga minib chiqdim. Undan markaziy ko'chaga o'tdim. E, hamma menga qaraydi! Hozir kim velosiped minadi? Menga o'zshagan biron “olifta” bu ishga jazm qilmasa, boshqasi qilmaydi... Chorraxa!* (SH. Xolmirzayev “Bahor” hikoyasi) mazkur parchada *chorraxa* so'zi ega shaklidagi parsellyat sifatida gapdan tashqariga chiqarilgan, u asosiy gap tarkibiga quyidagicha kira olishi mumkin: *Yomg'irli, loyli tor ko'chamizga minib chiqdim. Undan markaziy ko'chaga o'tdim. E, hamma menga qaraydi! Hozir kim velosiped minadi? Chorraxa menga o'xshagan biron “olifta” bu ishga jazm qilmasa, boshqasi qilmaydi.* Yuqorida ko'p bor ta'kidlanganidek, parsellyatsiya nafaqat gap, balki ma'lum kontekst doirasida yuzaga keltiriladigan lingvopoetik hodisadir, quyida ana shunday misollardan biriga e'tibor qaratamiz: ...*Tursunoy shu kecha yig'lab- yig'lab yotdi. Melisa chaqirgani uchun o'zini qarg'adi. “Vahimachi bo'lmay o'lay, erkak odam ichadi-da! — dedi. Bu gap birovlarining qulog'iga yetsa, nima degan odam bo'laman! Erini qamatgan... Koshki meni urgan bo'lsa! Beozorgina “kechir” dedi...Boyaqish... Shunday mayin, mo'mingina...Mening xarxashalarimga chidab kelayapti. Ikki dunyoda bunday erkak topilmaydi... O'zim aybdorman...Uydagi sirni ko'chaga chiqargan xotin xotin xotinmi?”* (Sh. Xolmirzayev “Shudring tushgan bedazor” hikoyasi) mazkur parchada gap bo'laklari shaklidagi uchta parsellyat ajratilgan bo'lib, shundan *boyaqish*

parsellyati ega shaklidagi parsellyat; *shunday mayin, mo‘mingina* parsellyati esa aniqlovchi shaklidagi parsellyat (bu haqda keyingi o‘rinlarda kengroq to‘xtalamiz) hisoblanadi. — *Opa... Bo‘ritosh opa, sizni ketsin, dedi. Zumrad opa!* (Sh. Xolmirzayev “Nasib etsa” hikoyasi) bu misoldagi ega shaklidagi parsellyatni quyidagicha deparsellyat holiga keltirish mumkin: — *Opa... Bo‘ritosh opa, sizni Zumrad opa ketsin, dedi.* Bu kabi shakllarni yozuvchi Sh. Xolmirzayev ijodida ko‘plab uchratish mumkin.

Ba‘zi tadqiqotchilarning ishlarida parsellyativ konstruksiya va ilova konstruksiyani bir hodisa sifatida talqin qilishdan tashqari ularni gap bo‘laklariga munosabati masalasida ham bir qator chalkashliklarni ko‘rish mumkin. Masalan, B. Maskapov “ega vazifasidagi ilova konstruksiyalar” haqida fikr yuritib, shunday yozadi: “Asosiy jumlada ega mavjud bo‘lmaydi, ilovalanadigan ega asosiy jumladagi ochiq qolgan ega sintaktik pozitsiyasini egallaydi: bilmadim. *Men u kishini ikki marta ko‘rganman, xolos. — ukasini tanirsiz. Nabijon* (I. Rahim). *Dilafro‘z o‘zi bilan olib kelgan mevalarni stolga qo‘ydi. Gilos, handalak* (I. Rahim). ... *Mana tanishib qo‘yinglar. Gulbahor Po‘latova* (R. Fayziy). *Ularga ozuqa ham ekamiz. Kungaboqar* (I. Rahim)...”<sup>43</sup>. Bu yerdagi misollar parsellyatsiya emas, ular haqiqatdan ham ilovali konstruksiyalardir, muallif bu to‘g‘rida haq. Lekin gaplarda ajratib ko‘rsatilgan ilovalar o‘z mohiyatiga ko‘ra asosiy gap tarkibiga kira olmaydi, buning ustiga asosiy jumlada ochiq qolgan ega sintaktik pozitsiyasi mavjud emas. Asosiy jumladagi egalar *siz, sizlar, biz* tarzidagi fe‘lning grammatik shakllari orqali va atoqli ot *Dilafro‘z* bilan bevosita ifodalangan. Bundan ko‘rinadiki, mazkur ilova konstruksiyalar ega shaklida emas, balki asosiy gapga aloqasi bo‘lmagan boshqa bo‘laklar shaklidir.

Ko‘p hollarda asosiy gapdagi uyushiq bo‘laklar sifatidagi egalar parsellyatsiyalanishini kuzatish mumkin. Bunda asosiy gap tarkibida umumlashtiruvchi so‘z saqlanib qoladi, bir necha uyushiq egalar alohida parsellyat sifatida gapdan tashqariga chiqariladi. Masalan: *Barcha mehmonlar kelishdi...*

<sup>43</sup> Маскапов Б. Присоединительные конструкции в узбекском языке. Дис. ... канд. филол. наук. — Ташкент, 1984. —135 с.

*Sovxoz direktorlari... Vrachlar... Brigadir bo'lim mudirlari... faqat siz yo'qsiz-da... Shunday bo'lmabdi-da... o'zingizni jiyaningiz...Tug'ilgan kuni...* (Sh. Xolmirzayev "Olam tortilish qonuni" hikoyasi). Bu misolda *sovxoz direktorlari, vrachlar, brigadir bo'lim mudirlari* shaklidagi uyushiq egalari asosiy gapdan tashqariga alohida-alohida parsellyat-birlik sifatida chiqarilgan, asosiy gapda esa ular uchun umumlashtiruvchi so'z vazifasidagi *barcha mehmonlar* bo'lagi ega vazifasida saqlangan. Xuddi shu kabi holat quyidagi misolda ham yaqqol ko'zga tashlanadi: *Shunchaki tasodifiy ulfat emas bular. Hamdard. Sirdosh. Ming yillik qarddon.* (Erkin A'zam "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi).

Sh. Xolmirzayevning asarlarida juda qiziq sintaktik strukturalarni kuzatish mumkin bo'ladi. Masalan quyidagi tuzilmaga e'tibor berilsa, shunday bir holat ko'zga tashlanadi, ya'ni unda umumlashtiruvchi so'z ham gap parsellyat sifatida asosiy gapdan tashqariga chiqarilgan. Uyushiq egalarning esa semantik jihatdan o'zaro bevosita aloqadorlari alohida-alohida parsellyatlar sifatida namoyon bo'lgan: *Ikromjon ayvon chetidagi choygumni engashtirib, bet-qo'lini yuvgan bo'ldi-da, ichkariga kirdi. Dasturxon yoziq. Choynak, piyola. Non, oqqand, yog'... Xona iliqqina.* (Sh. Xolmirzayev "Shudring tushgan bedazor" hikoyasi). Shunga o'xshash yana bir misol: *"O'lmas juda orli, ko'ngli nozik adib, — deb qo'yardi. — Tagi beklardan chiqqan-da. Toshkent beklaridan. Aristokratligiyam shundan. Qo'li ochiqligiyam. Mardligiyam. ..."* (Sh. Xolmirzayev "Binafsha hidlang, amaki!" essesi). Quyidagi misolga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda umumlashtiruvchi so'z ham alohida bo'lak sifatida parsellyatsiyalanganligini va uyushiq egalarning semantik jihatdan guruhlanganligini ko'ramiz: *"Yuring, marhamat, torting-torting" bilan hovuz bo'yidan o'tib, boloxonaga ko'tarilamiz. Mehmonxona. Dasturxon. Ko'rpachalar, bolishlar* (Sh. Xolmirzayev "Yozuvchi" hikoyasi). Mazkur gapni shunday deparsellyatsiyalash mumkin: *"Yuring, marhamat, torting-torting" bilan hovuz bo'yidan o'tib, boloxonaga ko'tarilamiz, mehmonxona: dasturxon, ko'rpachalar, bolishlar.* Shu kabi holatni quyidagi misolda ham ko'tish mumkin: *Kichkinaligimdayam shu xarsangni turihi shu edi... Ana tog'larning turishi o'sha-o'sha! Hech narsa o'zgarmagan. Osmon ham.*

**Bulutlar, yomg'ir...** (Sh. Xolmirzayev “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi...” hikoyasi).

Ba'zan asosiy gapdagi eganing eng xarakterli yoki konkret belgisini ega shaklidagi parsellyatda aytish orqali bo'lakni aktuallashtirish ham badiiy matnda uchrab turadigan usul hisoblanadi. Bunda asosiy gapdagi ega bilan parsellyat shaklidagi ega izoh, umumiylik-xususiylik munosabatida bo'ladi. Masalan: *bir mahal qora quyundek bir balo boshimga bostirib kelib, yoqamga yopishdi. Boyagi zanji.* (Erkin A'zam “Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati” qissasi)., *Kasofat bosib, biror yo'riqda u kishim g'ofil ish tutsangiz bormi, hech ikkilanmay, tog'amiz endi yo'q deyavering. Araz, yuzko'rmaslik.* (Erkin A'zam “Bizning tog'a” hikoyasi).

Umuman badiiy matn doirasida ega sintaktik pozitsiyasidagi bo'lakni asos tarkibidan parsellyat sifatida chiqarish orqali ta'kidni kuchaytirish usuli ko'p uchraydi.

### 2.1.2. Kesim shaklidagi parsellyat

Kesim o'zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni grammatik jihatdan shakllantiradigan, gapning mantiqiy va grammatik markazi bo'lgan bosh bo'lak ekanligi tilshunoslar tomonidan deyarli e'tirof etib bo'lingan. Hatto bunday ilmiy qarash maktab darsliklaridan ham qonuniy joy olib ulgurgan. 8- sinf “Ona tili” darsligida shunday qayd etilgan: “Kesim gap markazi bo'lib, u tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini birlashtiadi.” Darslik mualliflari ayni shu asosga ko'ra haqli ravishda “ikki yoki undan ortiq shakllangan kesimli gaplar qo'shma gaplar bo'lishini alohida ta'kidlaydilar”<sup>44</sup>. Dissertatsiyadagi maktab darsligidan keltirilgan ma'lumotga qo'shimcha ravishda, mazkur darslikning ikkinchi nashridagi kesim haqidagi shunday ma'lumotni qayd etish ham maqsadga muvofiqdir, “Gapni yuzaga keltirish, fikrni ifodalash jihatidan kesimning gapdagi ahamiyati juda katta. U hukmni ifodalovchi, gapning asosiy belgilarini ko'rsatuvchi eng muhim bo'lakdir. Gapda ega ham, ikkinchi darajali bo'laklar (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol)

<sup>44</sup> Хайдаров Ш. Кўрсатилган диссертация. 69-бет.

ham bevosita yoki bilvosita kesimga bog‘lanadi”<sup>45</sup>. O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan keyingi tadqiqotlarning birida kesim haqida shunday qarashlar mavjud: “Grammatik jihatdan kesim o‘z sostavidagi bo‘laklarga nisbatan hokim, egaga nisbatan esa tobedir. Ega birinchi bosh bo‘lak, mutlaq hokim bo‘lak bo‘lsa ham gapni tashkil etishda, gaplikni ko‘rsatishda kesim muhim ro‘l o‘ynaydi. Ega faqat temani ataydi, shu tema haqidagi bayon, fikr, mulohaza kesim orqali ifoda qilinadi. U gapning asosiy belgilaridan biri bo‘lmish predikativlikni ko‘rsatadigan zaruriy elementdir. Gap uchun xarakterli bo‘lgan modallik, zamon, shaxs va intonatsion tugallik kabi hodisalar ko‘pincha kesim bilan bog‘liq bo‘ladi”<sup>46</sup>. Bugungi kun tilshunosligida har qanday gapni shakllantirish uchun kesim muhim ro‘l o‘ynaydi. Ega va kesim ishtirok etgan to‘liq gaplarda hamisha bir vaqtning o‘zida ega kesimga kesim egaga tobelik munosabatini ifodalaydi, degan qat’iy qarash mavjuddir.

Yuqoridagi kesimning ana shunday talqinidan kelib chiqilsa, kesim sintaktik pozitsiyasidagi so‘z yoki birikmaning parsellyatsiyaga uchrashi mumkin emasligi ya’ni gap tarkibidagi kesim parsellyatsiyalana olmasligi ayon bo‘ladi. Yoki boshqacha qilib aytganda, asosiy gap tarkibidagi kesim undan tashqariga chiqarilganda, gap kesimsiz gaplik maqomini yo‘qotadi va asosiy gapdan tashqariga chiqarilgan kesim “kesim shaklidagi parsellyat” emas, balki gap shaklidagi parsellyatga aylanadi. Masalan: *Ko‘zlarimiz bir sekundga uchrashdi* (O. Yoqubov “Muqaddas” qissasi) gapini turli tarzda parsellyatsiyalab, turli bo‘laklar shaklidagi parsellyatlarni yuzaga keltirish mumkin, ya’ni: *Bir sekundga uchrashdi. Ko‘zlarimiz* (ega shaklidagi parsellyat); *Ko‘zlarimiz uchrashdi. Bir sekundga* (payt holi shaklidagi parsellyat); *Ko‘zlarimiz bir sekundga (?) Uchrashdi* tarzidagi jumla qurilishi semantik-grammatik qoidalardan uzilib qolgan, tugallanmagan. Buning ustiga, *Uchrashdi* shaklidagi parsellyat gap maqomida bo‘lib, gap shaklidagi parsellyat sifatida talqin qilinishi mumkin. Ko‘rinadiki, gapdan kesimni chiqarib, kesim shaklidagi parsellyatni yuzaga keltirib bo‘lmaydi. Ammo buni

<sup>45</sup> Қодиров М., Неъматов Н., Абдураимова М., Сайфуллаева Р. Она тили. 8-синф учун дарслик. — Т.: Чўлпон, 2010. Б. 57.

<sup>46</sup> Абдурахмонов Ф. А., Шоабдурахмонов Ш. Ш., Ҳожиёв А. П. Ўша асар, Б.129.

butunlay absolyut holat deb bo‘lmaydi, chunki oz bo‘lsa-da ayrim holatlarda kesim parsellyat shaklida kelishini kuzatish mumkin.

Ba’zi tadqiqotchilar kesimning parsellyatlanishi (ilovalanishi) rus tilida ayrim holatlarda, xususan, tarkibli kesimning yetakchi qismi asosiy gapda va ilovada uyushiq maqomda bo‘lgan holatlarda ba’zan kuzatiladi, deb ta’kidlaydilar<sup>47</sup>. Yana bir tadqiqotchi M. O. Stupkina bolgar tilida fe’llarning kesimlarning uyushishi bolgar tilshunosligidagi sintaktik an’anaga ko‘ra inkor etilishi, ikki yoki undan ortiq shaxsli fe’l (kesim) mavjud bo‘lgan sintaktik struktura alohida-alohida gaplar sifatida baholanishini ta’kidlaydi va shunga ko‘ra parsellyatsiyali konstruksiyalarda kesim parsellyatsiyasi faqat tarkibli kesimlarning qismlari doirasidagina bo‘lishini e’tirof etadi<sup>48</sup>.

O‘zbek tilshunosligida ham boshqa tilshunosliklarda bo‘lgani kabi yaqin-yaqinlargacha uyushiq kesimlarning mavjudligi ta’kidlanib, “Bir yoki bir necha egaga baravar tobe bo‘lgan birdan ortiq kesim uyushiq kesim deyiladi”, degan qarash mavjud bo‘lgan<sup>49</sup>. Ravshanki, bunday qarashda kesim gapning mantiqiy markazi ekanligi inkor etilgan.

Lekin bugungi o‘zbek tilshunosligida kesim gapning markazi sifatida talqin qilinishi kerakligi deyarli barcha tilshunoslar tomonidan e’tirof etildi. Tilshunos N. Mahmudov o‘zbek tilshunosligida uyushiq kesimlar masalasini yangicha talqin qilib, shunday yozadi: “kesim gapning mazmuniy, mantiqiy, grammatik markazi, asosi ekan, har bitta kesimlik markazi bitta gapni shakllantirishi lozim, ammo unda uyushiq bo‘laklar masalasi nima bo‘ladi? E’tirof etish o‘rinliki, 8-sinf ona tili darsligi mualliflari bu muammoni ham ilmiy va amaliy-metodik xolislik bilan hal qilganlar. Darslikda uyushiq kesimlarga mana bunday to‘ri ta’rif berilgan: “Gap tarkibida ikki yoki undan ortiq atov birliklari bilan ifodalangan kesim bo‘lib, kesimni shakllantiruvchi vositalar faqat keyingi kesim tarkibida ifodalanib, barchasiga aloqador bo‘lsa, bunday ko‘p kesimli gap uyushiq kesimli gap sanaladi”(109-bet), ya’ni *Siz a’lochi va jamoatchisiz* gapi uyushiq kesimli sodda

<sup>47</sup> Ким Г. В. Бессоюзные присоединительные конструкции в современном русском литературном языке. Автореф. дисс. ... канд. наук. Алма-Ата, 1965. С. 21-22.

<sup>48</sup> Ступкина М. О. Курсатилган диссертация. —Б. 77-78.

<sup>49</sup> Абдурахмонов Ф. А., Шоабдурахмонов Ш. Ш., Ҳожиёв А. П. Ўша асар. Б.172.

gap, chunki oxirgi kesimdagi –*siz* qo‘shimchasi *a’lochi* so‘ziga ham tegishli, juda aniq yechim topilganligi aniq, bunday qoida uyushiq kesimning mohiyatini to‘la ochib beradi”<sup>50</sup>.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, o‘zbek tilida ham tarkibli yoki predikativlik shakllari faqat bir marta qo‘llangan uyushiq kesimlar doirasidagina kuzatilishi mumkin. Masalan, *Ertaga ovchilar soyuzidan qopqon opkelish kerak! Siz opkelishingiz kerak.* (Sh. Xolmirzayev “Tikan orasidagi odam” hikoyasi).

## **2.2. Ikkinchi darajali bo‘laklar shaklidagi parsellyatlar**

### **2.2.1. To‘ldiruvchi shaklidagi parsellyat**

Yozuvchilar badiiy matnda to‘ldiruvchi shaklidagi parsellyatdan ham keng foydalanadilar. Sabab shundaki, to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi sintaktik bo‘lakning parsellyatsiyasi so‘zlovchining kommunikativ niyati va emotsional munosabatining gapda ifodalay olishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Ma’lumki, to‘ldiruvchi kesim va egadan keyin gapda muhim konstruktiv bo‘lak hisoblanadi va bu hol tilshunoslar tomonidan ham ko‘p bor ta’kidlangan. Jumladan N. Mahmudov shunday fikrlarni qayd etadi: “To‘ldiruvchi gapning ikkinchi darajali bo‘lagi bo‘lsa-da, u gapdagi informatsiyaning to‘liq bo‘lishini ta’minlovchi muhim komponentdir. Chunki u asosan, obyekt munosabatini ifoda etib, gapda go‘yoki ikkinchi predmet markazi sifatida unuing eng oddiy modellari tarkibiga ham bevosita kiradi. Hozirgacha bizga ma’lum tillarning birontasi bu obyekt munosabatining ifodalanishiga befarq emasligini E. Sepir alohida ta’kidlagan edi. Shu nuqtayi nazardan, ana shu obyekt munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladigan bo‘lak, ya’ni to‘ldiruvchi gapning konstruktiv bo‘lagidir”<sup>51</sup>.

Yana bir tadqiqotchi Sh. Haydarov to‘ldiruvchini aktuallashtirish nuqtai nazaridan izohlagan holda, ko‘plab o‘rinli fikrlarni e’tirof etgan. Aktuallashtirish nuqtai nazaridan ham to‘ldiruvchi (va hol) alohida mavqega ega. Yoyiq jumladan

<sup>50</sup> Махмудов Н. Она тили таълими мазмунида узвийлик муаммолари / Тил таълими босқичларида узвийликни таъминлашнинг илмий-амалий муаммолари. “Ўзбек тили” доимий анжумани ўнинчи йигини материаллари. — Тошкент, 2009. Б. 19.

<sup>51</sup> Махмудов Н. Функционал ва нофункционал тўлдирувчилар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. — Т.: Фан, 1981, Н1. Б. 43.

ikkinchi darajali bo‘laklarning kommunikativ o‘rni haqida gapirar ekan, A. Nurmonov shunday yozadi: “Turkiy tillarda aktuallashgan bo‘lakning ikki xil o‘rni ko‘rsatiladi. K. M. Abdullayev turkiy tillarda aktuallashgan bo‘lakning, ya’ni remaning ikki xil o‘rni borligini: 1) kesimdan oldingi o‘rni, 2) gapning oxiri va shunga ko‘ra aktuallashishning ikki darajasi — kuchli va kuchsiz aktuallashish mavjud ekanligini ta’kidlaydi. Ozarbayjon tilida kuchli aktuallashish jumlaning eng oxirida, kuchsiz aktuallashish esa kesimning oldida sodir bo‘ladi. Uning ko‘rsatishicha, hamma bo‘laklar shunday ikki darajadagi aktuallashishga ega bo‘ladi. Bu nuqtai nazardan, o‘zbek tili turkiy tillar sistemasida alohida o‘rin egallaydi. Chunki o‘zbek tilida ayrim bo‘laklar (masalan, ega va kesim) aktuallashishning faqat bir darajasiga — kuchli darajasiga ega. Ega aktuallashuvining kuchli darajasi uchun gapning oxirgi o‘rni xarakterlidir. Hol va to‘ldiruvchilarda bu ikki darajani kuzatish mumkin.” Chindan ham, to‘ldiruvchi kommunikativ sathda bevosita kesim oldidan kelib ham aktuallashish mumkin, gapning oxirida aktuallashishi mumkin, gapning oxirida kelib ham kuchli aktuallashishi mumkin. Masalan, *Men kecha kutubxonada kitobni o‘qidim* gapida *kitobni* shaklidagi to‘ldiruvchi kesimning bevosita oldida kelib aktuallashgan, mantiqiy urg‘u olgan. Bu gapning *Men kecha kutubxonada o‘qidim kitobni* shaklidagi variantida mazkur to‘ldiruvchi gapning oxirida kelib, yanada kuchli darajada aktuallashgan, remani ta’kidlab ko‘rsatgan. Ayni to‘ldiruvchi parsellyat sifatida gap tashqarisiga chiqarilganda esa ayni aktuallashuv yanada kuchli darajaga ega bo‘ladi, ya’ni: *Men kecha kutubxonada o‘qidim. Kitobni!*. Bunda aktuallashtiruvchi vosita sifatida bo‘lakning ayni parsellyativ pozitsiyasi bilan bir qatorda o‘ziga xos prosodika ham faol ishtirok etadi<sup>52</sup>.

Badiiy matnda to‘ldiruvchi shaklidagi parsellyatlarni juda ko‘p uchratish mumkin. Bunda asosiy gapdagi to‘ldiruvchi gapning oxiriga chiqariladi va u alohida jumla maqomida bo‘lib kuchli ta’kid oladi. Masalan, *O‘sha pastlikka egilib o‘sgan gujumcha ostida o‘tirgandim. Kursida.* (SH. Xolmirzayev “Quyosh-ku falakda kezib yuribdi...” hikoyasi) parsellyatli konstruksiyasida *kursida* shaklidagi

<sup>52</sup> Хайдаров Ш. Кўрсатилган диссертация. Б. 72-73.

to'ldiruvchi-parsellyat mantiqiy va emotsional ta'kidni kuchaytirishga xizmat qilgan. Bu gap deparsellyatsiyalanganda shunday gap yuzaga kelishi mumkin: *O'sha pastlikka egilib o'sgan gujumcha ostida kursida o'tirgandim.* Quyidagi misolda vositali to'ldiruvchining o'z aniqlovchisi bilan birga gap tashqarisiga parsellyat sifatida chiqarilganligini ko'rish mumkin: *Navoiy ko'chasidan Samarqand darvoza tomonga ketayapmiz. Uchqunning sariq do'mboq "Moskvich"ida.* (Sh. Xolmirzayev "Binafsha hidlang amaki" essesi) bu misol deparsellyatsiyalanganda shunday gap yuzaga keladi: *Navoiy ko'chasidan Samarqand darvoza tomonga Uchqunning sariq do'mboq "Moskvich"ida ketayapmiz.* Quyidagi misolda to'ldiruvchi pozitsiyasidagi uyushgan bo'lakning alohida-alohida parsellyat sifatida kommunikativ birlik maqomini olganligini ko'rish mumkin: *Xalaqit berayapsiz. Bizga! Safsar ikkalamizga.* (Erkin A'zam "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi). Quyidagi misollarda ham to'ldiruvchi pozitsiyasidagi bo'lakning kuchli ta'kid olib, parsellyatsiyalanganini ko'rish mumkin: *Mirziyodni ham juda-a yaxshi ko'raman. Mirziyod Mirziyodovni eshitgandirsan? Nashriyotda re-dak-tor. Tarjima qiladi... O'rischadan.* (Sh. Xolmirzayev "Bu kishim — ustoz, men — shogird" essesi)., — *Endi, qiziqmas edim-da, Ozodday... Lekin doktorlik ishim tayyor bo'ldi. Oybekdan.* (Sh. Xolmirzayev "Bu kishim — ustoz, men — shogird" essesi)., *Biz Shukur bilan ketovramiz. Soat beshda sizlarga Erkin keladi. Ukam. Moshinada.* (Sh. Xolmirzayev "Ay, Shuhrat akam-a" essesi) ushbu misolda to'ldiruvchidan tashqari izohlovchi pozitsiyasidagi bo'lak ham kuchli ta'kid olib parsellyatlangan. Mana bu misolga e'tibor beraylik: — *Ey, san qanaqa yozuvchisan o'zi, manga bir og'iz gapirmay, mening oldimdan o'tmasdan ketvoribsan paxtaga. Axir, man sizlar uchun javob olib qo'yuvdim! Rektordan. Obid Sodiqovichdan.* (Sh. Xolmirzayev "Bu kishim — ustoz, men — shogird" essesi) ushbu misolda izohlovchi so'z bo'lishi mumkin bo'lgan bo'lak ham, kuchli ta'kid olib alohida to'ldiruvchi shaklidagi parsellyatni hosil qilgan. Agar ayni shu *rektordan* to'ldiruvchisi asosiy gap tarkibida qoldirilganda, u bilan parsellyat to'ldiruvchi o'rtasida umumiylik va xususiylik munosabati hosil bo'lar edi, ya'ni shunday shaklda parsellyatli tuzilma

hosil qilinganda: *Axir, man sizlar uchun rektordan javob olib qo'yuvdim!* **Obid Sodiqovichdan** demak, bunday holatda *rektordan* to'ldiruvchisi *Obid Sodiqovichdan* parsellyatiga nisbatan umumiy ma'no ifodalaydi.

Asosiy gapdagi to'ldiruvchining eng xarakterli yoki konkret belgisini to'ldiruvchi shaklidagi parsellyatda aytish orqali bo'lakni aktuallashtirish usuli ham badiiy matnda ko'p uchraydi. Bunda asosiy gapdagi to'ldiruvchi bilan parsellyat shaklidagi to'ldiruvchi izoh, umumiylik-xususiylik munosabatida bo'ladi. Masalan: — *Unaqa demang, domla... O'g'lingizniyam ko'rdim. Qudratjonni.* (Sh. Xolmirzayev “Bu kishim — ustoz, men — shogird” essesi). Ushbu misoldagi *o'g'lingizni* to'ldiruvchi pozitsiyasida kelgan bo'lakda umumiylik, mavhumlik ma'nosi mavjud. Ana shu mavhumlik parsellyat orqali konkretlashtirilgan. Quyidagi misolda ham shunday holat kuzatiladi: *Qani, o'zim bitta soqelik qilay... Hoy, kabobdan opkelinglar! Tezroq! Jigaridan...* (Sh. Xolmirzayev “Binafsha hidlang, amaki!” essesi) bu misolda yuqoridagi misoldan farqli ravishda ravish holi pozitsiyasidagi bo'lak ham parsellyatsiyalangan.

### 2.2.2. Aniqlovchi shaklidagi parsellyat

Aniqlovchi shaklidagi parsellyat deyilganda, aniqlovchi pozitsiyasidagi bo'lakning parsellyat sifatida gap tashqarisiga chiqarilishi tushuniladi. Bu holatni ham yozuvchi o'zining badiiy niyatiga muvofiq ravishda amalga oshiradi. Aniqlovchi ikkinchi darajali bo'laklarning alohida bir turidir. U gapning strukturasiidagi roli jihatidan boshqa ikkinchi darajali bo'laklardan farq qiladi. Ikkinchi darajali bo'laklardan to'ldiruvchi va hol odatda fe'lga bog'lanib kelsa, aniqlovchi otga bog'lanib keladi. To'ldiruvchi va hol gap tarkibida, uning mustaqil bir bo'lagi sifatida odatda kesimga tobe bo'lib kelsa, aniqlovchi birikma tarkibida, uning bir elementi sifatida egaga ham, kesimga ham, to'ldiruvchiga ham, holga ham tobe bo'la oladi.<sup>53</sup> Mazkur talqindan ma'lum bo'ladiki, aniqlovchining asosiy vazifasi gapda ot, olmosh, harakat nomi va otlashgan so'zlarni aniqlash, ya'ni gapdagi biror bo'lakning belgisini hamda bir narsa buyumning kimga yoki nimaga qarashli ekanligini aniqlash, bildirishdan iborat. Tilshunos A. Nurmonov

<sup>53</sup> Абдурахмонов Ф. А., Шоабдурахмонов Ш. Ш., Хожиев А. П. Ўша асар. Б.157.

tilshunoslikdagi aniqlovchi haqidagi ba'zi qarashlarni umumlashtirib shunday degan edi: "...Aniqlovchi gap tuzilishining emas, balki gap tuzilishida bir unsur sifatida funksiyalashuvchi deskripsiyaning ichki tuzilishi unsuridir. Shuning uchun ham bu unsur predikat va uning argumentlari o'rtasidagi munosabat sifatida qaraluvchi gap tuzilishi uchun nofunkSIONALdir"<sup>54</sup>. Shunga qaramasdan, aniqlovchi kommunikativ sintaksisda alohida qimmatga ega. A. Nurmonov ta'kidlab o'tganiday, aniqlovchining aktuallashtirish o'rni aniqlanishdan keyingi o'rin bo'lib, u ajratilishi, ya'ni ajratilgan bo'lak maqomida aktuallashtirishi — rema ifodachisi bo'lishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, aniqlovchi nafaqat aniqlanishdan keyin, balki gapdan tashqariga chiqarilganda, ya'ni parsellyatsiyalanganda, uning aktuallashtiruvchi, mantiqiy-estetik ta'kidlanishi yanada kuchliroq bo'ladi<sup>55</sup>.

Yuqorida aytilgan holatni, ya'ni aniqlovchi shaklidagi parsellyatni badiiy matn doirasida ko'p uchratish mumkin. Chunki yozuvchilar badiiy matnda bu hodisaga tez-tez murojaat qiladilar va sifatlovchi aniqlovchini ham qaratqich aniqlovchini ham parsellyat shaklida qo'llaydilar. Masalan, *Bir mahal deng, bir-birini quvlab ikkita oppoq kapalak keldi* (Sh. Xolmirzayev "Quyosh-ku falakda kezib yuribdi..." hikoyasi) gapidagi *oppoq* aniqlovchisini parsellyatsiyalash mumkin, ya'ni: *Bir mahal deng, bir-birini quvlab ikkita kapalak keldi. **Oppoq!*** Agar yozuvchi kapalakning oq rangdaligini alohida ta'kidlamoqchi, o'quvchining diqqatini rema sifatida shunga qaratmoqchi bo'lganda shunday parsellyatli jumla tuzgan bo'lar edi. Lekin yozuvchining aynan shunday badiiy niyati bo'lmagan, ya'ni ushbu gapda emotsionallikni kuchaytirishni xohlamaganligi uchun parsellyatsiyadan foydalanmagan. Quyidagi parsellyatli jumlada yozuvchining badiiy istagiga muvofiq tarzda eganing aniqlovchisi alohida ta'kid maqsadi bilan gapdan tashqariga chiqarilgan: *Oldinma-ketin maqbaraga kirdik. Shifti juda baland, salqin. Undan o'tib, chog'roq hovliga chiqdi. Atrofda devorlar, hujralar. **Antiq!*** (Sh. Xolmirzayev "Qadimiy baqtrya tuprog'ida" essesi).

<sup>54</sup> Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (Синтаксис). — Тошкент: Ўқитувчи, 1995. Б. 94.

<sup>55</sup> Хайдаров Ш. Кўрсатилган диссертация. Б. 78.

Quyidagi misollarda ham ayni shunday holat kuzatiladi: *Birinchidan, Xolmirzajonni juda hurmat qilaman. Yozuvchi sifatida ham yomon emas. Durust.* (Sh. Xolmirzayev “Odil aka haqida o‘ylasam” essesi). *Sovuqdanmi, charchoqdanmi, shu qadar karaxt bo‘lib qolibmizki, allaqanday mashina yonginamizga kelib to‘xtaganini ham payqamabmiz. Qordek oppoq “Volga”.* (Erkin A‘zam “Navoiyni o‘qigan bolalar” hikoyasi).

Aniqllovchi gapda har doim ot yoki otlashgan so‘zga bog‘lanadi, u gap ichida egaga ham, to‘ldiruvchiga ham, holga ham tobe bo‘la oladi. Aniqllovchi parsellyat bo‘lib kelganda, o‘zi aloqalanadagan bo‘lakning belgisini alohida ta’kidlash yo‘li ifodalaydi. Masalan: *Jo‘radan keyin Oqboy ham qulog‘iga bir nima tiqib suvga kirdi, suv belidan oshganda, o‘zini tashladi va goh ko‘rinib — goh ko‘rinmay keta boshladi. Men ham suvga kirdim. Muzdek.* (Sh. Xolmirzayev “Oqtosh” hikoyasi). Ko‘rinib turganiday, bu misolda aniqllovchi shaklidagi parsellyat bitta bo‘lib, u asos qismdagi to‘ldiruvchi maqomida kelgan *suvga* so‘zining xususiyatini aniqlab, ta’kidlab ko‘rsatish uchun xizmat qilgan. Quyidagi misolda ham ayni shunga o‘xshash holatni kuzatish mumkin: *Fursatdan foydalanib men hovli-tuzga ko‘z yugurtirdim. Do‘ppidekkina, tor.* (Erkin A‘zam “Taziya” hikoyasi) misoldagi uyushgan aniqllovchi parsellyat asosiy gap tarkibidagi *hovli-tuzga* to‘ldiruvchisini izohlab kelgan. Bu gapning deparsellyatsiyasi *Fursatdan foydalanib men do‘ppidekkina, tor hovli-tuzga ko‘z yugurtirdim* shaklida bo‘lishi mumkin.

Ba‘zan asosiy gapdagi uyushiq aniqllovchilarning biri gapda qoldirilib, qolganlari parsellyat sifatida gap tashqarisiga chiqarilishi mumkin: *Sen shunday aqllisan! Katta bo‘lsang, allbatta yaxshi odam bo‘lasan. Mard, qo‘rqmas... Haqiqat uchun kurashadigan haqiqatchi!* (Sh. Xolmirzayev “Nasib etsa” hikoyasi). Misoldagi aniqllovchi shaklidagi parsellyat asosiy gap ichiga shunday tiklanishi mumkin: *Sen shunday aqllisan! Katta bo‘lsang, allbatta yaxshi, mard, qo‘rqmas, haqiqat uchun kurashadigan haqiqatchi odam bo‘lasan.*

Ba‘zi hollarda esa asosiy gapdagi uyushiq aniqllovchilarning barchasi alohida parsellyat sifatida gap tashqarisiga chiqariladi. Ayni shu holatni quyidagi

misolda yaqqol sezish mumkin: *Teshavoyning uyi bosib tushdi. U xotini bilan hovliga zo'rg'a tushib oldi. Tong otgach g'izillagancha otasinikiga ketdi. Egamberdi boboto'son sakkizda. **Qulog'i og'ir. Garang.*** (Sh. Xolmirzayev "Bir guzar odamlari" hikoyasi). *Otam do'mbira chertar edi. **Uning ovozi! Past, qandaydir dag'al va xasta.*** Biroq uni eshitganda ko'ngling kengayib ketadi. Ko'z oldingda behad adirlar ko'rinadi... (Sh. Xolmirzayev "Bahor" hikoyasi) mazkur misolda ikkita parsellyat ajratilgan bo'lib, ularning biri qaratqich aniqlovchili aniqlovchi shaklidagi parsellyat bo'lsa, ikkinchisi esa sifatlovchi aniqlovchili uyushgan aniqlovchi shaklidagi parsellyatdir. Ularni asosiy gap tarkibiga shunday tiklash mumkin: *Otam do'mbira chertar, uning ovozi past, qandaydir dag'al va xasta edi. Biroq uni eshitganda ko'ngling kengayib ketadi. Ko'z oldingda behad adirlar ko'rinadi., Keyin ozgina mojaro bo'ldi — nomiga, oqibati — shaharda kichkina, qishloqda kichkina to'y bo'ldi. Keyin to'ng'ich qizlari tug'ildi. **Shiringina, talpinchoq.*** (Erkin A'zam "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi) bu misolda asosiy gap tarkibidagi uyushiq aniqlovchilar parsellyatlangan. Quyidagi misollarda ham sifatlovchi-aniqlovchi parsellyatsiyalangan: *Astag'furullo. Kechirasiz starik. Iching-da o'zingiz ham. Nuqul yeysiz... Uyalming. Oling. Xudo o'zi kechiradi. Ozodlik zamonidasiz. **Mustaqillik!*** (Sh. Xolmirzayev "Ozodlik" hikoyasi)., *Siz ziyoli odamsiz. **Madaniyatli...*** (Sh. Xolmirzayev "Arosat" hikoyasi)., *kelishgan yigit edi. **Kamgap.*** (Sh. Xolmirzayev "Uh" hikoyasi)., *O'zlari yalqov bo'lib qolishgan. **Dangasa.*** (Sh. Xolmirzayev "Ozodlik" hikoyasi)., *Bir otarchi qo'shiq aytadi: "seni sevaman, dod. Chunki sen — chiroylisan..." He, la'nat senday san'atkorga! Nodon...* (Sh. Xolmirzayev "Bu kishim — ustoz, men — shogird" essesi)., *Ana endi deng, haykal hovlida turibdi. **Bala-and! Oppoq!*** (Sh. Xolmirzayev "Haykal" hikoyasi).,

Ta'kidlash joizki, yuqorida aniqlovchi gap bo'lagining sifatlovchi-aniqlovchi turiga ko'proq urg'u berildi. Aniqlovchi gap bo'lagining qaratqich-aniqlovchi degan turi ham mavjud bo'lib, u biror narsa tegishli, qarashli bo'lgan shaxs yoki predmetni bildirib keladi va gapda *kimning? nimaning? qayerning?* so'roqlariga javob bo'ladi. Aniqlovchining bu turi ham gapda parsellyatsiyalana

oladi va qaratqich-aniqlovchi shaklidagi parsellyatni badiiy matnda ko‘plab uchratish mumkin. Masalan: *Arofat sumkachasini olib, miq etmay chiqib ketdi. Yopiray, qanaqa qiz-a bu? Burilib bir og‘iz bir nima desa-chi! “Qayoqqa ketar ekanman? Bu uyda mening ham ulushim bor. **O‘zimning uyim.** Ketsang, sen chiqib ket. Meni avrab nikohdan o‘tkazding, nomusimni barbod qilding, endi qayoqqa haydayapsan, nomard pakana?!”* (Erkin A‘zam “Pakananing oshiq ko‘ngli” qissasi)., *Yo‘q-yo‘q boshini yerdan ko‘targani yo‘q. xuddi shunday bo‘lishini oldindan bilgandek, gunohkorona burildi-yu chiqdi-ketdi. **Dardisarning dardisari!*** (Erkin A‘zam “Pakananing oshiq ko‘ngli” qissasi). *O‘lgudek ishchan ekan Salim Qaror. Stoldan bosh ko‘tarmaydi. Ertalab oldida bir to‘p gazeta, choynakda choy, ko‘zoynagini burniga qo‘ndirib, ishtiyoq bilan mutolaa qiladi, qizil qalamda belgilar qo‘yadi. Keyin muk tushib mehnatkashlarning xatlaridan turli-tuman maqola yasaydi. Tushlikni aytmasa, tashqari chiqish yo‘q, dam olish yo‘q, chaq-chaq yo‘q. **To‘nkaning o‘zi.*** (Erkin A‘zam “Taziya” hikoyasi)., *Bu odamni boshqaqiyofada ko‘rmaganman. Ustozim...* (Erkin A‘zam “Taziya” hikoyasi)., *Keyin qazi-pazidan so‘z ochmay (Surxondaryoda qazi qilinmasligini bilsa kerak, tandirkabobni ta‘riflamoqlikning esa mavridi emas — dardim o‘ta jiddiy, bedavo!), erinmasdan tekin tushuntirgan: “Shamollash-pamollashni oyoqda o‘tkazgan ko‘rinasiz. **O‘shaning asorati.** ...”* (Erkin A‘zam “Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati” qissasi”). Quyidagi misolga e‘tibor qaratilsak, unda juda qiziq sintaktik hodisani ko‘ramiz: *Dasturxon odatdagidek obod, anvoyi ichimliklar sharshara, yagana kamchiligi anqoning urug‘i-yubulbulning suti topilmabdi qurg‘ur! **Anqoning urug‘i o‘z nomi bilan anqoning urug‘i-da. Ayniqsa, shu zamonda.*** (Erkin A‘zam “Pakananing oshiq ko‘ngli” qissasi) misoldan ko‘rinib turganidek, asosiy gapdagi qaratqich-aniqlovchi takror shaklda gap tashqarisiga parsellyat sifatida chiqarilgan va ta‘kidni yanada kuchaytirish uchun ta‘kid yuklamasidan foydalanilgan. Shu bilan birgalikda mazkur gapda payt holi pozitsiyasidagi bo‘lak ham parsellyatsiyalangan va payt holi shaklidagi parsellyat yuzaga kelgan.

**Izohlovchi shaklidagi parsellyat.** Ma'lumki, izohlovchi aniqlovchining bir turi hisoblanadi. Ya'ni bunda izohlovchi ot boshqa bir otni izohlab keladi. Badiiy asardan to'plangan faktik ma'lumotlarda uchrashicha, yozuvchi ba'zan o'z asarida emotsiyani kuchaytirish maqsadida ba'zan izohlovchini ham parsellyat sifatida asosiy gapdan tashqariga chiqarishi mumkin ekan. Masalan: *Muzeyning direktori Gavriil Vasilevich Parfyonov edi. Arxeolog! Zo'r olim...* (Sh. Xolmirzayev "Bir oqshom suhbat yoki do'stim Ro'zi Choriyev" essesi) mazkur misolda izohlovchi parsellyatsiyalangan, uning deparsellyatsiyasi shunday bo'lishi mumkin: *Muzeyning direktori arxeolog zo'r olim Gavriil Vasilevich Parfyonov edi.* Ma'lumki, izohlovchi ba'zi o'rinlarda atoqli otning laqabini (laqab — bu qaysidir ma'noda ma'lum bir xarakteri tufayli shaxs yoki predmetga tang'alangan nom) bildirib keladi. Badiiy matnda bu holat ham parsellyat sifatida qo'llanilishi mumkin. Masalan: *Janob Malikaning to'rvasini (Yangi yil bazmiga somsa pishirib kelgan edi) ko'tarib olgan. Xushomad. Sadoqatli it. Xira pashsha.* (Erkin A'zam "Navoiyni o'qigan bolalar" hikoyasi). Bu misol deparsellyatsiyalanganda: *Xushomad, sadoqatli it, xira pashsha Janob Malikaning to'rvasini (Yangi yil bazmiga somsa pishirib kelgan edi) ko'tarib olgan* — shunday gap yuzaga kelishini ko'rish mumkin. Ko'rinib turibdiki, birinchi gapda parsellyatsiyalangan bo'laklar deparsellyatsiyalanganda gapda izohlovchi-aniqlovchi vazifasini bajarmoqda. Quyidagi misolda ham izohlovchi shaklidagi bo'lak parsellyatlangan: *Hmm, u yerda Vahob Ro'zimatov ham bor. Yaxshi tahrirchi.* (Sh. Xolmirzayev "Bu kishim — ustoz, men — shogird" essesi), deparsellyatsiyasi: *Hmm, u yerda yaxshi tahrirchi Vahob Ro'zimatov ham bor.*

Shu va boshqa holatlarni badiiy matn doirasida ko'plab uchratish mumkin. Umuman, aniqlovchi shaklidagi parsellyatni uch turga, ya'ni sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi va izohlovchi aniqlovchi shaklidagi parsellyatga bo'lish mumkin.

### 2.2.3. Hol shaklidagi parsellyyat

Ma'lumki, hol to'ldiruvchidan keyingi o'rinda turuvchi ikkinchi darajali bo'lak hisoblanib, ish-harakatni biror bir jihatdan tavsiflash vazifasini bajaradi. U ekspressiv sintaksisda nihoyatda ahamiyatli bo'lak sanaladi. Tadqiqotchilar bu to'g'rida ham bir qancha asosli fikrlarni bildirganlar: "Hol boshqa ikkinchi darajali bo'laklarga nisbatan ham grammatik jihatdan, ham mazmuniy jihatdan benihoya ko'p qirrali sintaktik bo'lak hisoblanadi. Bu munosabat bilan gapdagi sintaktik pozitsiyalar va semantika masalasida A. Hojiyev va N. Mahmudovlarning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: "Sintaktik pozitsiyalar orasida hol sintaktik pozitsiyasi o'zining "nisbiy avtonomligi" bilan alohida ajralib turadi. Boshqacha qilib aytganda, gapning hol bo'lagi, garchi bavosita yoki bevosita kesimga tobe holatda bo'lsa-da, u gapning umumiy mazmuni bilan aloqaga kirishadi, kesim pozitsiyasidagi so'zning kuchli sintagmatik valentligini mutlaqo reallashtira olmaydi." Aytish lozimki, hol sintaktik pozitsiyasining ana shunday avtonomligi hamisha gapning umumiy mazmuni bilan aloqalanishi bu bo'lakning osonlik bilan parsellyatsiyalanishi uchun imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham o'zbek badiiy matnida hol shaklidagi parsellyatlar juda keng tarqalgan"<sup>56</sup>. Haqiqatdan ham, o'zbek badiiy matni doirasida boshqa gap bo'laklari parsellyatiga nisbatan, holning turli semantik turlari shaklidagi parsellyatlarni sezilarli darajada kuzatiladi. Bu holatni quyida badiiy asardan to'plangan faktik materiallar asosida ko'ramiz.

Parsellyatsiya natijasida asosiy gapdan tashqariga chiqarilgan hol alohida mantiqiy-poetik ta'kid olgan bo'ladi. Quyida parsellyatlangan va deparsellyatlangan jummlalarni qiyoslaymiz: *Yo'lda tushaman. Termizga yetmasdan* (Sh. Xolmirzayev "Xumor" hikoyasi) — *Yo'lda Termizga yetmasdan tushaman; Akam ham yaqinda ketadi, dedi... Shunaqa dedi. Yurishibdi. Chaylada, zig'irpoyada...* (Sh. Xolmirzayev "Nasib etsa" hikoyasi) — *Akam ham yaqinda ketadi, dedi... Shunaqa dedi. Chaylada, zig'irpoyada yurishibdi.*

Ta'kidlash joizki, boshqa tilshunosliklarda bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham holning bir qancha ravish holi, o'rin holi, payt holi, sabab holi,

<sup>56</sup> Хайдаров Ш. Курсатилган диссертация. Б. 81.

maqsad holi, miqdor-daraja holi, shart holi, to'siqsizlik holi kabi mazmuniy turlari mavjud. Hol mazmuniy turlarining deyarli barchasi yozuvchi badiiy maqsadiga bog'liq holda turli shakllarda parsellyatsiyalanish imkoniyatiga ega.

**Ravish (vaziyat, tarz) holi shaklidagi parsellyatlar.** Ravish holi gapda *qanday? qay holda? qay tarzda?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi va har doim fe'lga bog'lanadi. Ravish hollari ravish, ravishdosh, ot, sifat, olmosh, taqlidiy so'zlar va iboralar bilan ifodalanadi. Badiiy matnda ravish holi shakllarining parsellyat sifatida qo'llanilishi uchrab turadi. Ravish holi shakllarining parsellyat sifatida gap tashqarisiga chiqarilishi matnda ta'kidni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Yozuvchi o'zining so'z qo'llash uslubiga muvofiq ravishda alohida ta'kidlab ko'rsatishni xohlagan harakat tarzi ifodasini parsellyat sifatida chiqarib jumla tuzadi. Masalan: *Taom oldidan qo'llarimizni pokizalab olishimiz lozim. Durust. O'zimizdagidek.* (Erkin A'zam "Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati" qissasi). *O'sha kuni rayko'mda qanaqadir majlis chiqib, Salim Qaror toqqa borolmadi. Ertasi kelib, xo'jalik rahbari bilan telefon orqali so'zlashdi-yu mashinkaxonaga kirib, ikki soatda ikki sahifa narsa tayyorlab chiqdi. Og'zaki, aytib turib!* (Erkin A'zam "Ta'ziya" hikoyasi). *Arofatning aytishicha, to'ng'ich qizlari Hilola bir sinfdoshi bilan do'st tutinganmish. Shunchaki.* (Erkin A'zam "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi). *O'sha kuni deng, bir-ikki joyga ta'ziyaga ham boribdilar, qaytishda bozor-o'char qilib kelibdilar ro'zg'orga. Baloday.* (Erkin A'zam "Ta'ziya" hikoyasi). *Ziyofat ham shunga yarasha, kelajagi porloq qo'sha-qo'sha dastyor aspirantlar tipirchilab xizmatda edi. Mehmondan mezbon ko'p.* (Erkin A'zam "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi)., *Oxiri o'ylay-o'ylay, ustiga chodir yopib qo'ydim. O'rabgina.* (Sh. Xolmirzayev "Qumrilar" hikoyasi)., *Yozuvchi. Yozuvchi mana Odil akaday bo'ladi. So'ziam, harakatiyam — bir. Kitoblaridagi geroylariday...* (Sh. Xolmirzayev "Yozuvchi" hikoyasi)., *Vepshe, o'zimiz ham o'zgarib qolganmiz. Uylanadigan ayolimizning u yoq-bu yog'iga qarab, uni boshqa odamiy sifatlarini salmoqlab ko'ramiz. Beixtiyor ravishda...* (Sh. Xolmirzayev "Bu kishim — ustoz, men — shogird" essesi)., *Har joyning to'yi*

*o'zgacha bo'ladi. O'rganish kerak. Keyin uni o'rni bilan ishlatish kerak. Qiziq qilib... Fransuzlarga o'xshab.* (Sh. Xolmirzayev "Ay, Shuhrat akam-a" essesi).

**O'rin holi shaklidagi parsellyatlar.** O'rin holi *qayerga? qayerda? qayoqqa? qayerdan?* kabi so'roqlarga javob bo'lib, gapda ko'pincha o'rin ravishi, ot, olmoshlar bilan ifoda qilinishi ma'lum. O'rin holi shaklidagi parsellyatlar badiiy matnda keng kuzatilib, u ham yozuvchining badiiy niyatiga bog'liq ravishda ifodalanadi. Masalan: *Kursining oyoqlari yerga botib ketgan. Namgarchilikda-da* (Sh. Xolmirzayev "Quyosh-ku falakda kezib yuribdi..." hikoyasi) mazkur misolda o'rin holi parsellyat shaklida gap tashqarisiga chiqarilgan va unga yanada kuchli ta'kid yuklash maqsadi-da *-da* yuklamasi qo'shib ifoda qilingan. Ba'zan o'rin holi va holning boshqa semantik turlari alohida-alohida parsellyat sifatida bo'laklanishi mumkin. Masalan: *So'ngra deng, bu endi peshin namozidan keyingi gap — Samiyevning oldiga jo'nabdilar, direktorning. Shundan shu yoqqa. Piyoda.* (Erkin A'zam "Ta'ziya" hikoyasi) gapdagi birinchi parsellyat o'rin holi shaklidagi, ikkinchisi ravish holi shaklidagi parsellyatdir. Quyidagi misollarda ham o'rin holi kuchli ta'kid olib, asosiy gap tashqarisiga chiqarilganligini ko'rish mumkin: *Bor chiroyli ayollarning boshida chiroyli erlari ham bo'ladi. Chiroyli, ko'rkam bo'lmaganda ham novcha, qaddi raso bo'ladi ular. Novcha bo'lmaganlari esa shunday bir xislat yoki qudratga egaki, ularning qoshida har qanaqa darozi ham qulluqda turadi. Ayni shunisiga qarab chiroyli ularni tanlagan. Agar ular ishonchni oqlamasa, oqlaydigani topiladi. Har qadamda. Bozor bu!* (Erkin A'zam "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi)., *Moviyko'z dilbar... ana, o'tiribdi. Ma'shuqaxonimning biqinida. Basharasi burishib, bujmayib ketgan, bir zamonlar Otashqalbni entiktirgan moviy ko'zlar endi xira tortib, tussiz bo'lib qolgan.* (Erkin A'zam "Shoirning to'yi" qissasi)., *Biz o'zi yurtdosh edik. Ikkalamiz ham Samarqand taraflardan...* (Erkin A'zam "Shoirning to'yi" qissasi)., *Gujum orti — etakdagi qishloq ko'rinmasa ham, qishloqning uchetidan o'rlab ketgan archali tog' mana man deb turadi. Oshuvgacha.* (Sh. Xolmirzayev "Quyosh-ku falakda kezib yuribdi..." hikoyasi)., *Bilasiz, u — tog'lik joy, shag'al kar'arlari ko'p. biriga yuborara deb o'ylagan edim, yo'q, domotdixga yubordi.*

*Rayonning odamlariga mo'ljallab qurilgan ekan. To'g'ning etagida.* (Sh. Xolmirzayev "Qumrilar" hikoyasi), — *Jim!* — *dedi O'tbosar.* — *Bittasi chiqdi. Chil emas-ov...* — *Darhol durbinni Mansurga berdi.* — *yorilgan qoyaga qarang. Chaproqda.* (Sh. Xolmirzayev "Ozodlik" hikoyasi), *Hamma jim. Ko'zlar tobutda. Shuhrat aka ketyaptilar. Boshqa olamga...* (Sh. Xolmirzayev "Ay, Shuhrat akam-a" essesi), *Abdullajon Qarshiga ketgan. Nizom Namanganga...* (Sh. Xolmirzayev "Ay, Shuhrat akam-a" essesi), — *Ha, dashtdan qaytib ko'chib kelganimizdan keyinonam meni Boysunga keltirib qo'ydilar. Momomning yoniga.* (Sh. Xolmirzayev "Bu kishim — ustoz, men — shogird" essesi), *Sizga xat ham yozibdilar. Xat!.. Hatto Kibriyo opaning jiyanidan berib yuboribdilar. Universitetga.* (Sh. Xolmirzayev "Bu kishim — ustoz, men — shogird" essesi).

**Payt holi shaklidagi parsellyatlar.** Ma'lumki, payt holi gapda *qachon? qachongacha? qachondan beri? qay vaqt?* so'roqlariga javob bo'ladi va ko'pincha ot, payt ravishi, olmosh, payt ravishdoshi, sifatdosh, harakat nomi, son, sifat bilan ifoda qilinadi. Badiiy matn doirasida ham payt holi shaklidagi parsellyatlar uchrab turadi. Masalan: *Maysalar mayin yelpindida asta shivirlashadi, sirlashadi, hasratlashadi. Odamlarga o'xshab. Bahorda shunday, bahorda.* (Erkin A'zam "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi). Keltirilgan misolda ikkita hol gap bo'lagi parsellyatsiyalangan, ularning birinchisi ya'ni *odamlarga o'xshab* parsellyati ravish (o'xshatish) holi shaklidagi, *bahorda shunday, bahorda* esa payt holi shaklidagi parsellyat hisoblanadi. *Birgina Musofir muxlis qoldi maydonda. U to mana bu anjuman boshlanajak fursatgacha o'sha yerda bo'ldi. Ketmadi. Shaharda bugun ochilgan manzaraga tikilib o'tiraverdi. Kechga qadar.* (Erkin A'zam "Shoirning to'yi" qissasi). *Tuman markazidan o'tib bormoqda edik. Ko'cha gavjum. Qovun-tarvuz qo'ltiqlagan, xalta-xulta ortmoqlaganlar qaytyapti. Yakshanba, bozor-o'char.* (Erkin A'zam "Ta'ziya" hikoyasi). *Yoshlik davroni o'tdi endi, qariding...Qaridim? Qachon? Men hali nimani ko'ribman, axir?* (Erkin A'zam "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi), *Meni ko'rgan O'tkir aka: "O, pisatel! Shukurjon!" deb yubordi. U kishi bu yerda turganida ham, o'qti-o'qtin kelganida ham men bilan to'rt og'iz hasratlashib olar — g'iltillagan ko'zlarini qariyalardek*

*qisingqirab, bitta gapni takrorlar edi: “Onani rozi qilish ekan-de. **Boshdayoq.** Endi qiynalvomman, uka...”* (Sh. Xolmirzayev “Bu kishim — ustoz, men — shogird” essesi)., — *M-mening hamishagi obro‘yim shu bo‘lgan... turmada ont ichganman. omon chiqib borsam yoshlarni bizday bo‘lmaslikka o‘rgatishim kerak... Men, mana shunga harakat qilib keldim. **Bugungacha...*** (Sh. Xolmirzayev “Ay, Shuhrat akam-a” essesi). *Shunday turibdi... ha, onda-sonda ochaman. **Kechalari.*** (Sh. Xolmirzayev “Qumrilar” hikoyasi).

**Miqdor holi shaklidagi parsellyatlar.** Miqdor holi *qancha? qanchalab? nechalab? necha marta?* kabi so‘roqlarga gapda ko‘pincha miqdor daraja ravishlari, son, sifat va miqdor-daraja ma’nosini bildirgan so‘z birikmalari bilan ifodalanadi. Ba’zi hollarda miqdor hollar ham yozuvchi istagiga muvofiq parsellyatsiyalanishi uchrab turadi. Masalan: — *Bir tanishimning xonasida turibman. **Vaqtincha.*** (Erkin A’zam “Pakananing oshiq ko‘ngli” qissasi). *Ayniqsa, bayramlar arafasida katta-katta maydonlar yoshlarga to‘lib ketadi. Ular kun bo‘yi oyoqda tikka, oftobning tig‘ida turli tUSDagi liboslarga burkanib, turli turli tantanavor shakllar yasash bilan ovora. **Yuzlab-minglab yigit-qiz.*** (Erkin A’zam “Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati” qissasi)., *Umarbekov to‘rga o‘tib, telefonda raqam terdi. ... — Yaqinda Bolgariyaga ketish xayfim bor, — dedi. — Radoisiga. Jordan Mileev bo‘tga kelarkan. **Uch oyga!...*** (Sh. Xolmirzayev “Binafsha hidlang, amaki!” essesi).

**Sabab holi shaklidagi parsellyatlar.** O‘z nomidan kelib chiqqan holda sabab hosli gapda *nima sababdan? nima sababli? nima uchun? nimaga? nega?* kabi so‘roqlarga javob bo‘lib keladi va holning bu turi ham parsellyat sifatida qo‘llanilishi mumkin. Masalan: *Basharti quloq boshimdagi shovqin bir zum tinsa, bilmadim, yo turgan joyimda yiqilib tushsam, yo esimni yo‘qotib qo‘ysam kerak. **Qo‘rquvdan!*** (Erkin A’zam “Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati” qissasi)., *Suhbatdoshimiz kino arbobi ekan. Arbobliga rost shekilli — ijodkor bo‘lsa, dunyo kezmoqqa vaqt qayda! Samalyot poylab qolgan emish. Ertaga Bryusselgami, Kopengagengami uchishi kerak. **Kinofestivalga!*** (Erkin A’zam “Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati” qissasi). *Kuzda esa kuyib-kuyib yig‘lashadi — xazon, xas-*

*xashak... Ayriliqdan, hijrondan. Odamlarga o'xshab.* (Erkin A'zam "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi). Mazkur misolda ikkita hol shaklidagi parsellyat ishtirok etgan bo'lib, birinchisi sabab holi shaklidagi, ikkinchisi esa ravish holi shaklidagi parsellyatdir. Quyidagi gapga e'tibor berilsa, unda murakkab sintaktik bo'linish yuz berganligini kuzatish mumkin: *U ketgach, atigi bir soatlik mehnatdan Pakana pakkaga yetgan uloqcha otdek sulayib, hozirgina Safsar o'tirgan qulay savat kursiga cho'zilib qolardi. Har gal shunday. Hayajon-u zo'riqishdan.* (Erkin A'zam "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi) misolda asos tarkibidan ikkita hol pozitsiyasidagi gap bo'lagi kuchli ta'kid olgan va alohida-alohida parsellyatsiyalangan. Misoldagi *hayajon-u zo'riqishdan* parsellyati sabab holi shaklidagi parsellyat bo'lib, *har gal shunday* payt holi shaklidagi parsellyat bu yerda sabab holi shaklidagi parsellyatni konkretlashtirish va yanada kuchli ta'kid olishi uchun xizmat qilgan. Mahoratli yozuvchi shu yo'l bilan o'quvchiga informatsiyani sodda, ixcham va ta'sirli ravishda yetkazib bera olgan, ya'ni parsellyatsiya hodisasi matnda ko'plab so'zlarning isrof bo'lishining oldini olgan, deyish o'rinlidir.

Hol gap bo'lagi matn doirasida oson parsellyatsiyana olganligi va holning ma'no turlari bir qancha bo'lganligi sababli hol shaklidagi parsellyatni boshqa ikkinchi darajali bo'laklarga nisbatan ko'proq uchratish mumkin.

### III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TADBIQI

#### 3.1. Ta'lim bosqichlaridagi darsliklarda parsellyatlarning qo'llanilishi

Mamlakatimiz Mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalar tubdan isloh qilindi. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohasida ulkan ishlar amalga oshirildi. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Dastur qabul qilinishi xususida yurtboshimiz shunday deydi – “Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur tasodifan paydo bo'lgani yo'q – bu aynan shu xalqimizning qon-qoniga singigan ma'rifat qonuniyatining davomi”<sup>57</sup>. Bu gaplar bizning yurtimizda ta'lim-tarbiya masalasi kecha yoki bugun paydo bo'lgan narsa emas, balki u xalqimizning qon-qoniga singib ketgan qonuniyat ekanligi anglashiladi. Zero, “Ma'rifatga intilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan biridir”<sup>58</sup>.

Parsellyatsiya hodisasi ta'lim bosqichlaridagi darsliklar(asosan, maktab, litsey va kollej darsliklari miqyosida tahlilga tortish nazarda tutilgan)da alohida mavzu sifatida kiritilmagan, lekin shunday bo'lsa-da o'rta maktab o'quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari uchun mo'ljallangan adabiyot darsliklarida parsellyatlarning qo'llanilishini juda ko'plab kuzatish mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan adabiyot darsliklariga o'zbek badiiy nasrida barakali ijod qilgan ko'plab yozuvchilarning asarlaridan namunalar kiritilgan. O'sha asarlarda gap bo'laklari va takror shakldagi parsellyatlar uchraydi. Umuman, badiiy matn dorasida parsellyatlarni qo'llash holatini zamonaviy o'zbek yozuvchilaridan ko'proq Shukur Xolmirzayev, Erkin A'zamov, Asqad Muxtor, O'tkir Hoshimov, Nazar Eshonqul, Shoim Bo'tayev, Tog'ay Murod, Cho'lpon, Said Ahmad, Xayriddin Sultonov kabi ijodkorlarning asarlarida ko'rish mumkin. Masalan, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning III bosqich talabalariga mo'ljallangan adabiyot darsligiga Cho'lponning “Kecha va kunduz” romanidan parchalar kiritilgan va u sinchiklab o'qib chiqilsa, unda gap shaklidagi, gap bo'laklari shaklidagi va takror shakldagi parsellyatlarni uchratish mumkin. Fikrimizni tasdiqlash uchun o'sha parchada uchraydigan gap bo'laklari va takror

<sup>57</sup> Каримов И. А., Баркамол авлод орзуси. Т.: “Шарк” Нашриёт-матбаа концерни бош тахририяти, 1999-йил, 50-бет.

<sup>58</sup> Каримов И. А. Ўша китоб, 86-бет.

shakldagi parsellyatlarni ko‘rib chiqamiz: *Yangi yo‘lning allaqysi bir joyida ko‘z ilgamas bir cho‘l bor edi. Cho‘l, qup-quruq cho‘l...; — Ehtiyot shart deyman! Ehtiyot. Yaxshiroq surishtirsak, yaxshiroq bilamiz-da, axir!; Miryoqub “astag‘furullo” o‘rniga uyat bir so‘z aytdi. Mingboshi besh battar yoyilib kuldi.*

— A, **battol-ey! O, battol-ey! Xudo urdi seni! Xudo urdi endi!..** — dedi u.; *Mingboshi yana kuldi.*

— **“Sallala” de, betavfiq! “Sallala” de!;** — *Muncha ham ovozi chiroyli bu qizning!.. Ashula aytsa, qulog‘ing mast bo‘lib, o‘ladi odam... Nafasi buncha issiq, muncha mazalik! Muncha ta‘sirlik!; Chakka suyaklari turtib chiqqan, peshanasi bo‘yiga tor, eniga keng va uzun-uzun chuqur ajinga ega... Burun o‘rtacha, lekin qanshari past... (Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romani). Parchadan keltirilgan misollardan ko‘rinib turganidek, “Kecha va kunduz” romanida, asosan, takror shakldagi parsellyatlarning uchrashini e‘tirof etish mumkin.*

Mazkur adabiyot darsligiga O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidan parchalar, Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasi va Xayriddin Sultonovning “Yo Jamshid” hikoyasi kiritilgan va ularda ham parsellyatsiya uchrab turadi. Masalan: *Bir kuni maktabga komissiya kelib qoldi. Bir emas, to‘rt kishi oeqa partaga borib o‘tirishdi. O‘qituvchi opamiz dars o‘tyapti-yu, hayajondan ovozi titraydi. Sinf jimjit. Shu payt deraza sharaqlab ochildi-da, Zebi xolaning yo‘g‘on ovozi eshitildi.*

— *Vali, ma, non! (O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” qissasi) — bu yerda gap shaklidagi parsellyat; “Qorako‘zgina, qayoqlarda sanqib yuribsan? Hech uyda o‘tirasanmi-yo‘qmi? Qorning ham ochgandir? Tentakkina. Gapimga quloq sol, nega beozor musichani quvasan?..” (Said Ahmad “Qorako‘z majnun” hikoyasi) — ega shaklidagi parsellyat; — Hoy, o‘zingni bos! Jon bolam, o‘zingni bos! Qo‘ni-qo‘shni eshitadi-ya! Bemahalda... (X. Sultonov “Yo Jamshid” hikoyasi) — takror va payt holi shaklidagi parsellyat qo‘llangan.*

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning III bosqich talabalariga mo‘ljallangan adabiyot darsligida yuqoridagilardan farqli ravishda Asqad Muxtor, Tog‘ay Murod va Erkin A‘zamov kabi yozuvchilarning asarlarida parsellyatsiya

hodisidan foydalanish nisbatan ko‘proq kuzatiladi. Darslikda Asqad Muxtorning “To‘qqizinchi palata” hikoyasi kiritilgan. Quyida ushbu asarda uchraydigan parsellyatlarni ko‘rib chiqamiz: — *Bahromov osmondan ko‘zini uzmay gapga qo‘shildi. Umid degan odam bolasini ne ko‘ylarga solmaydi. Bir kitobda o‘quvdim — Hindistonda keksalar maqaddas Gang bo‘yida jon berishni orzu qilisharkan. U yerda o‘lgan odam shahid ketib, to‘g‘ri jannatga noil bo‘larmish. Shuning uchun odamlar Gang sohilida uzlat chekib, haftalab och yotishar, kecha-yu kunduz xudodan o‘lim tilashar ekan. **Umid shunaqa.** — gap shaklidagi parsellyat; Cholning yuzi cho‘zilib ketgan, atrofdagilarni tanimayotgandek bejo tikilar, gapirolmas edi. Goh jon berayotgandek ko‘zidan ma‘no qochganda, atrofdagilarning nafasi ichiga tushar, yurakni muzlatadigan sovuy jimlik cho‘kkanda, Ma‘muraning ko‘ksini yorib chiqqan yig‘i tovushi eshitar edi. Ma‘mura cholning qiynalغانlarini ko‘p ko‘rgan. Ayniqsa, uning hilviragan badanlariga igna sanchib qiynashlarini ko‘rgani ko‘zi yo‘q edi.*

— *Nimaga qiynashadi-ya! **Tinchgina jon berishiga qo‘yishmay...***

*Bahromov yotgan joyida uning qo‘lini ushlab qisdi.*

— *Tavba deng, qizim.*

— ***Nimaga** qiynashadi axir! **Nimaga?** Bari bir... — Ma‘mura baqirib yig‘lab yuborishidan qo‘rqib, yugurib chiqib ketdi. — bu parchada ikkita parsellyat bor, birinchisi ravish holi shaklidagi parsellyat, ikkinchisi esa takror sabab holi shaklidagi parsellyat; *Alisher lo‘ppi, momiq oyoqchalari bilan maysani bosib hamon kelardi, oldida esa tomdan uzilib tushgan yalang‘och **simning** uchi ilondek buralib yotibdi. **Elektr simi!** — asos tarkibidagi qaratqich-aniqllovchi takror parsellyat shaklida alohida kommuniativ birlik sifatida qo‘llangan.**

Darslikda yozuvchi Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshomda” qissasidan parcha berilgan. Quyida mana shu parchada qo‘llangan parsellyatlarni keltiramiz: ... *Odamlar meni kal deydigan bo‘ldi. Ziyodulla kal emish! E tavba-e, e tavba-e! Avva-avval quloqlarimgacha lovillab yondim. Ko‘nglim o‘ksidi. Keyin-keyin botmaydigan bo‘ldi. Ko‘nglimga singdi. Endi Ziyodulla kal demaydiganlardan o‘pkalardim. Ayniqsa, **pochtachidan.** Qachon ko‘rsa o‘rtoq Qurbonov, deydi.*

*G'ashim keladi. Meni mayna qilayotganday tuyuladi. — vositali to'ldiruvchi shaklidagi parsellyat; Birodarlar, hamsoyamiz Qulmat polvon bozorlab keldi. Devordan bo'ylab, narx-navoni so'radim. Denov bozorida mayiz o'n so'm bo'пти. Regarda yanayam qimmat emish. Mayizingiz bo'lsa, armonda qolmang dedi. Mayiz bizda bor-da! **Olti un xalta!** — miqdor holi shaklidagi parsellyat; — Senga kissavurlik qilishni o'rgatib qo'yaman! **Yur melisaga!** — o'rin holi shaklidagi parsellyat; Zo'r tomosha bo'ldi! Uchchalasi bittasini shunaqangi soldi. **Paq-paq! Nokdaun!** — ega shaklidagi parsellyat;*

*— Eb-ey, eb-ey, ikkovimiz gapirishdik-ku, uka. Men sizga...*

*— Men bilan-a? Bekorni aytibsiz! **Tuhmat!** Soqolingiz bor, og'zingizga qarab gapiring. — ega shaklidagi parsellyat;*

*— Ha, endi, bir kampir ekan-da. **Bor-yo'g'i qoravul!** Xalqaro ahamiyatga aqalli mahalliy ahamiyatga molik shaxs bo'lsa ekan, bilagimizga qora lenta taqib faxriy qoravullikda tursak, motam tutsak, nutq so'zlasak aha. — sifatlovchi-aniqlovchi shaklidagi parsellyat; — Kampirlarning o'limi mahalliy gap, o'rtoq Qurbonov. E'tiborga molik emas. Ana, xalqaro arenada qancha tragediyalar sodir bo'lmoqda. Aha, Eron shohi Pahlaviy yashirin buyruq berib, bir kinoteatrni yoqib yuboribdi. Ichida besh yuz inson bor ekan. Aha, tragediya deb buni aytadi. **Dahshat!** — ega shaklidagi parsellyat qo'llangan.*

Ana shu darslikka yana badiiy asar yozish uslubida parsellyatsiya hodisasiga ko'p bora murojaat qiladigan va bu orqali keng kitobxonlar orasida shuhrat qozona olgan yozuvchilardan biri Erkin A'zamovning "Ko'k eshik" hikoyasi kiritilgan. Quyida mazkur hikoyadagi parsellyatlarga e'tibor qaratamiz: — *Voy bolam —ey, ko'karib ketibsan-a! Kir-kir... Qachon kelding? Man xavotir olib o'tiribmanku, **bu izg'irinda** bolafaqir qay ahvolda kelarkan, deb. **O'lgur sovuq ham...** — takror shakldagi to'ldiruvchi parsellyat; — *Oyi, shu-u, bo'yga yetgan qizingiz bo'lmagani chatoqda, — deydi Hamid menga ko'z qisib.**

*— O'zim ham shunga achinaman. Bo'lganida sandan boshqaga bermasdim-a, attang! — deb astoydil kuyunadi kampir. — Hay, parvo qilma, bolam, sani o'zim uylantiraman, ko'rasan. Ko'z ostiga olib yurganim bor. **Qo'shnilardan.** Bir*

*nozaninki, sochi taqimiga tushadi. — O‘rin holi shaklidagi parsellyat; — Men baxtimni yo‘qotganman, ukalar, — deydi bizga. — Musofirsizlar. Ammo-lekin musofirchilik yomon narsa. Mana, o‘zim ham... Baxtimni tortib oldi. **Nomardlar!..** Men hali ularga ko‘rsatib qo‘yaman! Ha! Ilmiy ishlarim qolib ketdi...— ;U chiqib ketgach, Bo‘riboy aka maxfiy sirni ochayotgandek, derazaga qarab pichirlaydi:*

*—Sherigingiz tupoy ekan-ku? Daniyaning qirolichasi kimligini bilmaydi-ya!*

**Oliy maktabda o‘qiy turib...** — to‘siqsizlik holi shaklidagi parsellyat.

Parsellyatsiya hodisasini 7-sinf uchun mo‘ljallangan adabiyot darsligidan joy olgan Sh. Xolmirzayevning “O‘zbeklar” hikoyasida ham ko‘p uchratish mumkin. Masalan: *Ikkinchi kursda paxtaga bordik. **O‘sha Bo‘ka rayoniga. Chetdagi bir kolxoziga.** — uyushgan holdagi o‘rin holi shaklidagi parsellyat; Mana shu o‘zimizning Surxon vohasiga o‘xshab ketadigan joylar ekan: har qadamda qiyozlar o‘sgan. **Bog‘- bog‘ yosh qamishning tagi bilan o‘tqazib qo‘yganday.** — ravish (o‘xshatish) holi shaklidagi parsellyat; *Men yig‘ladim. Keyin shu **kitobni** berdi. Yaxshi **kitob!** — takror to‘ldiruvchi shaklidagi parsellyat; Bizni ko‘rib qiyqirib yuborishdi. **Bechoralar...** — ega shaklidagi parsellyat; Ayvon ustuniga suyanib tomosha qila boshladim: paxtazor chetida **tutlar. O‘sha tutlar...** — takror ega shaklidagi parsellyat; — *Kelasi yildan paxtaga chiqamiz!.. Men hozir ham paxta teraman. Opamga terishaman... Kitob? O‘qiyman. “Robinzon Kruzo” bor. Bitta felsher tashlab ketgan. **O‘tgan yili.** — payt holi shaklidagi parsellyat; To‘rt kishi zo‘rg‘a sig‘adigan xona edi. Burchakda g‘ishtin pech. **Oqlangan.** — aniqlovchi shaklidagi parsellyat; *Erta jo‘naydigan kunimiz o‘zlari xotinlari bilan kelib qoldilar. **Yotoqqa...** — o‘rin holi shaklidagi parsellyat; *Qo‘zi topildi hisob. A, xotin? He, Shodito‘qaydan topdik. **Ul-bulni...** — vositasiz to‘ldiruvchi shaklidagi parsellyat; *Shu Ergashvoyning ichiga tepsang-da! — dedi. — Ko‘zimga itdan battar ko‘rinyapti... Endi, bir umr kulib yuradi bizdan, yaramas. **Yovvoyi...** — aniqlovchi shaklidagi parsellyat kabi sintaktik holatlarni ko‘rish mumkin.******

Parsellyatsiya hodisasini 8-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan adabiyot darsligiga kiritilgan badiiy asarlarning ba‘zilarida uchratish mumkin. Masalan, mazkur darslikka yozuvchi Asqad Muxtorning “Chinor” romanidan parcha

kiritilgan va unda parsellyatga oid quyidagi sintaktik hodisalarni kuzatish mumkin: *Kimdir qo‘rqmadi, u qo‘rqdi. Bir zungina qo‘rqdi. **Bir zum... Bir zum.*** – takror shakldagi parsellyat.

Yuqorida ta’lim bosqichlaridagi adabiyot darsliklarida uchraydigan parsellyatlar ko‘rib o‘tildi. Ishning mavzusi gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatlarni o‘rganish bo‘lsa-da, mazkur bo‘limda parsellyatsiya hodisasi (ta’lim bosqichlaridagi adabiyot darsliklarida gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatlar kam uchraganligi sababli)ga umumiy holda yondashildi.

### **3.2. Ochiq dars ishlanmasi**

#### **Mavzu: Gap bo‘laklari shaklidagi parsellyat**

##### DARSNING MAQSADI

**Ta’limiy maqsad:** — o‘quvchilarda parsellyatsiya va uning ishlatilishi haqida bilim hamda ko‘nikmalar hosil qilish.

##### **Tarbiyaviy maqsad:**

- o‘quvchilarni Ona-Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash;
- o‘quv faniga ijobiy munosabat uyg‘otish;
- muloqot madaniyatini rivojlantirish;
- jamoda ishlash ko‘nikmasini tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi maqsad:**— o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘rganish va rivojlantirish, ularda parsellyatsiya hodisasiga qiziqish uyg‘otish, o‘z-o‘zini nazorat qilishni shakllantirish.

##### O‘QUV VOSITALARI

Dars mavzusiga doir adabiyotlar, darslik, doska, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar.

##### DARSNING SHIORI

**Beshikdan to qabrgacha ilm izla.**

##### DARSNING USULI

Interfaol usullar, lahzalik savol-javob usuli, aqliy hujum, qiziqarli savollar, “Qora quti” metodi.

##### DARSNING TURI

*Aralash, ya'ni an'anaviy va noan'anaviy usullardan foydalaniladi.*

### DARSNING BOG'LANISHI

Badiiy adabiyot, tilshunoslik, vatan tuyg'usi, psixologiya, tarix.

### DARSNING "OLTIN QOIDALARI"

1. *O'ng qo'l qoidasiga rioya qilish.*
2. *O'zaro hurmat va ahillik.*
3. *O'zgalar fikrini tinglay bilish.*
4. *Faollik.*
5. *Vaqtga rioya qilish.*

### DARSNING TUZILISHI

- |                        |                   |
|------------------------|-------------------|
| * Tashkiliy qism       | <i>10 daqiqa.</i> |
| * Darsning borishi     | <i>40 daqiqa.</i> |
| * Darsni mustahkamlash | <i>30 daqiqa.</i> |
| * Darsni yakunlash     | <i>10 daqiqa.</i> |

Mavzu: “Gap bo‘laklari shaklidagi parsellyat” mavzusining

T e x n o l o g i k m o d e l i


O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi	Ma’ruza
Ma’ruza rejasi / o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi	1. Parsellyatsiya haqida ma’lumot. 2. Parsellyatsiya va unga yondosh hodisalar. 3. Gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatlar.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi	O‘quvchilarda parsellyatlar, ularning qo‘llanilishi haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Tashkiliy qismni vaqtida o‘tkazish;</li> <li>- O‘quvchilardan o‘tilgan dars mavzusini va uyga vazifani so‘rab baholash;</li> <li>- Yangi mavzuni yoritish va undagi asosiy tushunchalarni yoritish;</li> <li>- Parsellyatsiya va gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatning turlari, ishlatilishi haqida tushuncha berish.</li> </ul>	<p>O‘quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Guruh sardori o‘qituvchining savoliga to‘liq javob beradi;</li> <li>- Parsellyatni badiiy asardan topib bera oladi;</li> <li>- Gap bo‘laklari shaklidagi parsellyat haqida tushunchaga ega bo‘ladi va uni tushuntirib bera oladi.</li> </ul>
Ta’lim usullari	Ma’ruza, “Klaster”, “Snayper”, “Aqliy hujum”, “Qora quti”, “Kimoshdi savdosi”, tarqatmalar.
Ta’lim shakli	Ommaviy
Ta’lim berish sharoiti	Jihozlangan xona
Monitoring va baholash	Og‘zaki, savol-javob.


## Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi


Bosqichlar vaqti	Faoliyat turlari	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
I bosqich. Mashg'lotga kirish. 10 daqiqa.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Mashg'ulotning tashkiliy qismi;</li> <li>- O'tgan dars mavzusini so'rash va baholash;</li> <li>- O'tgan darsni mustahkamlash va yangi mavzuga bog'lash.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Guruh sardori javob beradi;</li> <li>- O'quvchilar berilgan savollarga tegishli javob beradilar va tegishli bahosini oladilar;</li> <li>- Javob bergan o'quvchilar o'z kamchiliklarini to'ldiradilar.</li> </ul>
II bosqich. Asosiy qism. 40 daqiqa.	<p>Yangi mavzuni bayon qilish orqali:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Parsellyatsiya hodisasi haqida tushuncha beriladi;</li> <li>- Parsellyatsiya va unga yondosh bo'lgan hodisalar xususida to'xtalib o'tiladi;</li> <li>- Gap bo'laklari shaklidagi parsellyatlar tushuntiriladi va daliliy misollar asosida izohlanadi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>-O'quvchilar yangi mavzuni tinglaydilar;</li> <li>- O'quvchilar parsellyatsiya hodisasi haqida o'rganadilar;</li> <li>- O'quvchilar parsellyatsiya hodisasiga yondosh bo'lgan hodisalar haqida tushunchaga ega bo'ladi;</li> <li>- O'quvchilar gap bo'aklari shaklidagi parsellyatning nima ekanligini tushunib oladilar.</li> </ul>
III bosqich. Darsni mustahkamlash. 30 daqiqa.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Darsni mustahkamlash uchun "snayper", "aqliy hujum" metodlaridan foydalaniladi;</li> <li>- "qora quti" metodidan foydalanildi;</li> <li>- "Kimoshdi savdosi" o'yini o'tkaziladi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- O'quvchilar berilgan savollarga javob beradilar;</li> <li>- O'quvchilar belgilangan vaqt davomida tarqatma materiallardagi misollar ichidan gap bo'lagi shaklidagi parsellyatlarni topadilar;</li> <li>- bunda o'quvchilar ikki guruhga bo'linib, o'qituvchi tomonidan berilgan badiiy asardan parsellyatlarni</li> </ul>

		topishga harakat qilishadi.
IV bosqich. Yakuniy. 10 daqqa.	<p>O‘tilgan mavzu mustahkamlanadi, olingan bilimlarning kelgusi darsdagi va hayotdagi ahamiyati tushuntiriladi.</p> <p>Darsda faol qatnashgan talabalar baholanadi.</p> <p>Uyga vazifa: Mavzuni yaxshilab o‘qib chiqish. Sh. Xolmirzayev, E. A‘zam O‘. Hoshimov va boshqa yozuvchilarning badiiy asarlaridan gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatlarni topib, daftarga yozish.</p>	<p>Tinglaydilar, tushunmagan joylarini so‘raydilar;</p> <p>Uyga berilgan topshiriqni yozib oladilar.</p>

## DARSDA FOYDALANILGAN KO'RGAZMALI QUROLLAR.







## XULOSA

Parsellyatsiya hodisasini o'rganish dunyo tilshunosligida ancha ilgari, XX asrning 30-yillaridan boshlangan. Shu asrning 50-60-yillarida bu hodisa rus tilshunosligida "ilovali konstruksiyalar" bilan tenglashtirilgan holda ancha keng tadqiq qilingan bo'lsa-da, uning mazmun-mohiyati o'sha-o'sha bahsligicha qolaverdi. XXI asrning dastlabki o'n yili ichida o'zbek tilshunoslari tomonidan parsellyatsiya hodisasining umumiy tadqiqi amalga oshirilib, mazkur hodisaning mazmun-mohiyati to'laligicha ochib berildi.

Parsellyatsiyaning mohiyati yaxlit sintaktik butunlik bo'lgan gapni ta'kid va ekspressiyani kuchaytirish maqsadida ikki (yoki undan ortiq) kommunikativ birlikka final tinish belgilari vositasida bo'lib, uni gapning oxiriga chiqarishdan iborat.

Parsellyativ konstruksiyalarda parsellyat remani ifoda qiladi. Chunki so'zlovchi tinglovchiga ma'lum bir xabar ichidan yetkazilishi eng muhim bo'lgan qismni alohida ta'kidlab aytishga harakat qiladi. Bunday ta'kid og'zaki nutqda mantiqiy urg'u, pauza, intonatsiya kabi vositalar yordamida amalga oshirilsa, yozma nutqda parsellyatsiya hodidasidan keng foydalaniladi.

Parsellyatsiya va ilova konstruksiyalar bir qancha o'xshash va farqli jihatlarga ega. Xuddi shunday badiiy matn sathida yuz berib, parsellyatsiya hodisasi bilan bir qancha o'xshash va farqli jihatlarga ega bo'lgan: paranteza, ajratilgan bo'lak, segmentatsiya kabi sintaktik hodisalar ham mavjud.

O'zbek tilida parsellyatlarning asosan uch turi: gap bo'laklari shaklidagi, gap shaklidagi, mikromatn shaklidagi parsellyatlar farqlanadi.

Badiiy matnda gap bo'laklari shaklidagi parsellyatlar turli tarzlarda namoyon bo'ladi. Bundan kesim shaklidagi parsellyatlarni qisman mustasno deyish mumkin. Chunki kesim shaklidagi parsellyat juda kam (faqat tarkibli kesimlarning uyushiq yetakchi qismigina ba'zan parsellyatlanadi) uchraydi, chunki kesimning gapdagi mantiqiy-grammatik mavqeyi uning parsellyatsiyalanishiga mo'nelik qiladi.

Ega gap bo‘lagining gapdan parsellyat sifatida chiqarilganligini juda ko‘p uchratish mumkin. Eganing parsellyat sifatida asosiy gapdan tashqariga chiqarilishida juda qiziq, xilma-xil semantik-grammatik holatlar kuzatiladi, xususan, asosiy gapdagi uyushiq egalarning biri yoki bir nechtasi parsellyat sifatida chiqarilishi, ba‘zan ummumlashtiruvchi so‘z asosiy gapda qoldirilib, uyushiq bo‘laklar gap tashqarisiga chiqarilishi yoki uyushiq bo‘laklar guruh tarzida va alohida-alohida parsellyatsiyalanishi mumkin.

To‘ldiruvchining parsellyat sifatida asosiy gap tashqarisiga chiqarilishi ham juda ko‘p uchraydigan sintaktik hodisa hisoblanadi.

Aniqllovchi ham parsellyatsiyalana oladi. Badiiy matndan to‘plangan faktlar sifatlovchi-aniqllovchi, qaratqich-aniqllovchi va izohlovchi-aniqllovchi shaklidagi parsellyatlar uchrashini ko‘rsatadi.

Badiiy matn doirasida hol shaklidagi parsellyat juda ko‘p uchraydi. Bunga sabab shuki, hol hamisha gapning umumiy mazmuni bilan aloqalanadi, shunga ko‘ra unda osongina parsellyatsiyalanish xususiyati mavjud.

Gap bo‘laklari shaklidagi parsellyatlarni ta’lim bosqichlaridagi darsliklarda, xususan, 7-8-9-sinf adabiyot hamda kollej va litsey talabalarining 3-kurs talabalariga mo‘ljallangan adabiyot darsliklarida uchratish mumkin.

Umuman, badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalar muallif nutqida ham qahramonlar nutqida ham keng qo‘llaniladi. Ekspressiv sintaksis usuli bo‘lgan parsellyatsiya natijasida so‘z isrofgarchiligi kamayadi, tegishli qismlarning poetik ta’kid darajasi ortib, nutqning lingvopoetik, sintaktik-estetik quyuqlashuvi vujudga keladi. Parsellyatsiya badiiy matnda matn badiiyatini oshirib, o‘ziga xos sintaktik usul vazifasini bajaradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. “Баркамол авлод орзуси”, Т.: Ўзбекистон, 1992-йил,13-бет.
2. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан курашимиз. – Тошкент: Шарқ, Т.7. – 1999. – Б. 132-154.
3. Каримов И. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. - 686 б.
4. Каримов И. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т.9. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. - 439 б.
5. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
6. Абдуллаев А. Илова кўчирма гапли конструкциялар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1982. – №2. – Б. 50-52.
7. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси: Синтаксис. Олий ўқув юртлари учун. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. - 248 б.
8. Алексеенко И.В. Парцелляция как грамматическая структура речи (на материале произведений английского языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2006. - 25 с.
9. Белошапкина В.А. Современный русский язык. Синтаксис. – М.: Высшая школа, 1977. - 248 с.
10. Богоявленская Ю.В. Парцелляция в русском и французском языках: структурные и семантико-синтаксические особенности: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2003. - 24 с.
11. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ...дисс. – Тошкент, 1993. -246 б.
12. Ҳайдаров Ш. Бадиий матнда парцеллятив конструкцияларнинг кўлланиши. Диссертация. Т.:— 2010. 146 б.
13. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2001. - 163 б.

14. Иванчикова Е.А. Парцелляция, ее коммуникативно-экспрессивные и синтаксические функции // Русский язык и советское общество, Морфология и синтаксис современного русского литературного языка. – М., 1968. – С. 42-57.
15. Исхоқов Ф. Ҳозирги замон ўзбек тилида иловали конструкциялар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. 2-китоб. – Тошкент: ЎзРФА, 1961. – Б. 284-289.
16. Жамолиддинова Д.М. Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди ...дисс. автореф. – Тошкент, 2009. - 26 б.
17. Маскапов Б. Присоединительные конструкции в узбекском языке. Автореф. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. - 20 с.
18. Маскопов Б. Ўзбек тилидаги илова конструкциялар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 1970. – №6. – Б. 50-54.
19. Маскопов Б. Ўзбек тилшунослигида илова конструкциялар масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 1973. – №5. – Б. 49-52.
20. Маҳмудов Н. Функционал ва нофункционал тўлдирувчилар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 1981. – №1. – Б. 43-46.
21. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (Синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - 232 б.
22. Маҳмудов Н. Кесимнинг гапдаги мақоми // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 2009. – №1. – Б. 44-56.
23. Маҳмудов Н. Она тили таълими мазмунида узвийлик муаммолари // Тил таълими босқичларида узвийликни таъминлашнинг илмий-амалий муаммолари. “Ўзбек тили” доимий анжумани ўнинчи йиғини материаллари. – Тошкент, 2009. – Б. 12-21.
24. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. - 296 б.

25. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: Cho'lon, 2006. - 114 b.
26. Розенталь Д.Э. Теленкова М.А. Словар-справочник лингвистических терминов. – М.: Просвещение, 1985. – 399 с.
27. Ступкина М.О. Парцелляция в современном болгарском языке (на материале художественной прозы): Дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008. - 167 с.
28. Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар. Филол. фанлари канд. ...дисс. – Тошкент, 1972. - 21 с.
29. Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек тили. Синтаксис. Синтактик ва синтагматик қайта бўлиниш. Парцелляция. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Zar qalam, 2004. - 145 б.
30. Турниёзов Н. Матн лингвистикаси (маърузалар матни). – Самарқанд: Нашриётсиз, 2004. - 132 б.
31. Туропова М. Иловали конструкцияларнинг бошқа синтактик конструкциялардан фарқи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – №1. – Б. 53-56.
32. Турсунов Б. Парцеллированные придаточные предложения в немецком и узбекском языках: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Л., 1975. - 17 с. Зелепукин Р.О. Парцелляция в художественной прозе В.Токаревой: структура, семантика, текстообразующие функции: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2007. - 24 с.
33. Виноградов А.А. К вопросу о дифференциации явлений парцелляции и динамического присоединения // Вопросы языкознания, – М., 1981. - № 3. – С. 198-110.
34. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. - 156 б.
35. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. - 160 б.

36. Йўлдошев М. Бадиий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри ...дисс. – Тошкент, 2009. - 314 б.
37. Ўзбек тили грамматикаси. II т. Синтаксис. – Тошкент, 1976. - 560 б.
38. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 680 б.
39. Гаффоров А.А. Ҳозирги ўзбек тилида парцеллятив ва иловали курилмаларнинг синтактик деривацияси. Филол. фанлари номзоди ...дисс. автореф. – Самарқанд, 1997. - 26 б.
40. Гуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. - 256 б.
41. Ширяев Э.Н. Бессоюзное сложное предложение в современном русском языке. – М.: Наука, 1986, 224 с.

**Elektron resurslar:**

1. [www.ziyo.uz.hikoyalar](http://www.ziyo.uz.hikoyalar).
2. <http://www.rsl.ru.yazikoznaniye>.
3. <http://www.dissershop.com>.
4. <http://www.newdissertation.com>.
5. <http://www.disser.ru>.